

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Kasb ta'limi fakul'teti
«Himoyaga ruxsat etilsin»
Kasb ta'limi fakul'teti dekani
_____ Ya. U. Ismadiyarov
«___» _____ 2016 y.

**5110800 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim
yo’nalishi 4-bosqich guruh talabasi**
Arzikulova Shoxsanam Rahim qizining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARINING SINFDAN
TASHQARI RANGTASVIR MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH
METODIKASI**

Talaba: _____ Sh.Arizkulova
Ilmiy rahbar: _____ dotsent
N.Tolipov
Taqrizchi: _____ U.Xakimov
Taqrizchi: _____ X.Muratov

«Himoyaga tavsiya etilsin»
Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi
kafedrasi mudiri _____ dots.
R.Sh.Xalilov

Toshkent 2016

**MAVZU: UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARINING SINFDAN
TASHQARI RANGTASVIR MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH
METODIKASI
R E J A:**

KIRISH.

**I-BOB. UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARI TASVIRIY SAN`AT
MASHG`ULOTLARIDA O`QUVCHILARNI IJODIY QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.**

- 1.1. Mustaqillik yillarida O`zbekiston umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriyl san`atning o`qitilishi.
- 1.2. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriyl san`at mashg`ulotlarining mazmuni.
- 1.3. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining tasviriyl san`at mashg`ulotlarida natyurmort kompozitsiyasining o`ziga xos xususiyatlari

**II-BOB UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARINING
O`QUVCHILARIGA MAVZU ASOSIDA RASM ISHLASH ORQALI
IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.**

- 2.1. Tasviriyl san`at ta`limining maqsad va vazifalari va uning o`quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi o`rni.
- 2.2. Umumiy o`rta ta`lim maktablari o`qituvchilariga sinfdan tashqari mashg`ulotlarini tashkil etishda rangtasvirdan suhbat o`tkazish metodikasi.
- 2.3. Umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarini sinfdan tashqari mashg`ulotlarda natyurmort ishlashga o`rgatish metodikasi

**III-BOB. TA`JRIBA-SINOV ISHLARINI O`TKAZISH VA
NATIJALAR TAHLILI.**

- 3.1. Tajriba- sinov ishlarining mazmuni va o`tkazish metodikasi.
- 3.2. Olingan natijalar tahlili.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak»¹. Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maksadida 1997-yili «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur»i qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analari, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan².

Mustaqil respublikamizda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin olishida o'zining samarali natijalarini bermoqda. Keyingi vaqtda hamma sohalarida bo'lgani kabi oliy ta'lim tizimida, kasb-hunar kollejlari, o'rta umumta'lim maktablarida ham talaygina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'rta umumta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarni tayyorlashda yangi o'quv rejalar, namunaviy dasturlar tuzilmoqda.

¹ I.A. Karimov. «O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari». -T.: «O'zbekiston», 1995, 9-b.

² Qarang: «Xalq ta'limi» jurnali, 1992-yil, 10-12 son, 1-bet

Respublikaning turli oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlari, o'rta umumta'lim maktablarida yoshlarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazish borasida ko'plab amaliy tadbirlar o'tkazilmoqda. Yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy san'at xususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurti fakultetlarida, kasb-hunar kollejlari, o'rta umumta'lim maktablarida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etib, pedagog va olimlar zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi.

Tasviriy san'at fani o'rta umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasidagi bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Tasviriy san'at fanidan yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi.

Hozirgi vaqtda o'rta umumta'lim maktablarida mutaxassislik fanlar, jumladan qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya mashg'ulotlarini o'qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tasviriy san'at ta'limi davlat standartlari asosida, yoshlarga tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'qitishning hozirgi holatini aniqlash va uning keyingi yillarda mo'ljallangan istiqbolli yo'llarini ishlab chiqish.

2. Tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha o'rta umumta'lim maktablarida rassom pedagoglarni tayyorlash muassasalar ish faoliyatini ilmiy uslubiy jihatdan taxlil etish.

3. Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish orqali yoshlarni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash va yuksak didli, Vatanga sadoqatli, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevib

qadrlay oladigan kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlashdir.

Tasviriy va amaliy san'at eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasi. Bobokalonlarimizning hayot yo'lini, go'zallikka bo'lgan intilishini o'tmishdan saqlab qolgan ana shunday moddiy madaniyat yodgorliklari orqali o'rgana boramiz.

XX asr boshlarida Toshkent va Samarqandda bir qancha badiiy maktab va studiyalar tashkil etilib, ularga iqtidorli rassomlar rahbarlik qilganlar. (S.P. Yudin, I.S.Kazakov va boshqalar). Ushbu to'garak studiyalarda keyinchalik mashhur rassom bo'lib yetishgan Usta Mo'min (A.Nikolaev), A.Volkov, B.Lavrenev va boshqalar mehnatga undovchi, turli nuqson va kamchiliklarni fosh etuvchi xajviy plakatlar bilan, 20 – yillarda esa moybo'yoq bilan yaratilgan asarlari orqali elga tanildi. Keyingi yillarda I.Ikromov, M.Xakimjonov, B.Jukov, V.Ufimtsev, O.Tatevosyan, P.Benkovlar ham tasviriy san'atni rivojlanishiga o'zlarini hissalarini qo'shdilar.

30- yillarda B.Xamdamiy, O'.Tansiqboyev, A.Siddiqiy, L.Abdullayev kabi o'zbek rassomlari o'zlarining dastlabki ijodiy ishlari bilan xalqqa tanildilar.

40-50 yillar rassomlari o'zlarining mahoratlarini egallashlari yo'lidagi yangi bosqich bo'ldi. R.Temurov, A.Abdullayev, Ch.Axmarov, Sh.Hasanova, V. Kaydalov, V.Evenko, M.Nabiev, R.Ahmedov, Z. Inog'omov, M.Saidov, T.Oganesov, Yu.Elizarov kabi o'nlab rassomlar manzara, portret, tarixiy, natyurmort, maishiy janrlarda barakali ijod etib turli ko'rgazmalarda muvaffaqiyat qozondilar, hamda o'zbek tasviriy san'atini dunyoga tanitdilar.

60-80 yillar tasviriy san'atida, ayniqsa yoshlar ijodida turli badiiy uslublarning takomillashgani ko'zga tashlandi. Ko'pgina rassomlar me'morlar bilan hamkorlikda yaratgan mozaik panno, devoriy rasmlar bir qancha monumental binolarni serhasham qildi. O'sha yillarda Q.Basharov, G.Chiganov, A.Siglentsev, T.Muxamedov, M.Kagarov va boshqalar dastgohli grafika va kitob grafikasi sohasida samarali ijod qildilar.

Hozirgi vaqtda B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Mirzayev,

A.Ikromjonov, G'. Abduraxmonov, A.Mo'minov, Ya.Salpinkidi kabi sermahsul rassomlar bilan bir qatorda o'nlab yosh ijodkorlar mustakil O'zbekistonning tasviriy san'atini butun jahonga namoyish etishda o'zlarining ulkan hissalarini qo'shmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan 1997 yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning tarkibida rassomlar uyushmasi, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda, Toshkent shahrida bir qator badiiy kollej va litseylar tashkil etilib, faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi va deyarli barcha viloyatlarda, Respublika rassomlar uyushmasining bo'limlari samarali ish olib bormoqda.

Hozirda mustaqil Respublikamizdagi, o'rta umumta'lim maktablarida turli mutaxassis fanlar bilan bir qatorda tasviriy san'at fani ham chuqur o'rgatilmoqda. Rangtasvir fani bo'yicha olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlari bo'lajak yosh pedagoglarni san'at ilmini ham nazariy, ham amaliy mukammal egallagan mutaxassislar qilib yetishtirishga qaratilgandir. Ayni kunlarda o'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb - xunar kollejlari tirishqoq, bilimdon, zukko va eng muhimi shu kun talablariga «labbay» deb javob bera oladigan mutaxassis o'qituvchilar bo'lishi lozim.

Tasviriy san'at bo'yicha Rossiyada, shuningdek O'zbekiston olimlari ham bu sohada salmoqli mehnat qilib kelmoqdalar.

Tadqiqot ishi dolzarbligining yana bir tomoni shundaki, o'rta umumta'lim maktablarining o'quvchilarini tasviriy san'at fanidan savodli rasm chizishga o'rgatish, badiiy dunyoqarashlarini shakllantirishdan iboratdir.

Masalani shu kunlardagi ahvolini o'rganganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'rta umumta'lim maktablarida qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya o'quv mashg'ulotlari namunaviy dasturlar asosida olib borilayotgan bo'lsada shu sohaga oid o'quv- metodik qo'llanmalar, rangli slaydlar, metodik bosqichli ko'rgazmali qurollar yetarli darajada emasligi ayrim qiyinchiliklarga olib kelmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynovchi sub'ektlar sirasida o'qituvchi va uning roli yuqori qadrlangan. Bizning yurtimizda asrlar davomida o'qituvchi shaxsiga nisbatan alohida hurmat ko'rsatilgan. O'z navbatida, uning professional tayyorgarligi va mahoratiga katta e'tibor berilgan va unga yuksak talablar qo'yilgan. Ana shunday talablar mohiyati ilk yozma manba ulug' mutafakkirlar – Abu Nasr al Forobiy, Aburayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslixiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab allomalar tomonidan yaratilgan asarlar mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida talabalarga mukammal bilimlar berish, shaxsini kamol toptirish va tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonida milliy madaniyatni shakllantirish, tasviriyl san'at turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida yoshlarga yuksak estetik bilimlarni berish, shuningdek, tasviriyl san'atdan yuksak mahoratni qaror toptirish masalalari ko'plab yirik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: X.Abdukarimov, A.Aliyev, D.O.Himmataliyev, O.Xudoyorova, R.Hasanov va boshqalarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin.

Yoshlarga ta'lim berishning Oliy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini shakllantirish o'z-o'zini boshqaruvi asosida o'qituvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlik tashxisi masalalari N.A.Muslimov M.A.Abdullajonov, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, M.M.Axmedjonovlar tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasi va yechimini topgan.

Ta'lim tizimi uchun, xususan umumiy o'rta ta'lim, KHKlari uchun tasviriyl san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammolari bilan bog'liq bo'lgan texnologik yondashuvlar V.S.Kuzin, A.A.Melik-Pashaev, N.Oydinov, Z.N.Novlyanskaya, N.N.Rostovtsev, T.Ya.Shpikalova, B.P.Yusov kabilarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Biroq, globallashuv jarayonida, bilim olish shakl va usullari yangi texnologiyalar bilan boyitilayotgan bir davrda yangi tadqiqotlar ko'proq qiziqish uyg'otadi. Shu ma'noda keyingi yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarida bu

muammoning yechimida yangi ilmiy xulosalar taqdim etib borilmoqda. Bizning ilmiy tadqiqot ishimizga keng aloqador bo'lgan ishlardan B.Boymetovning «Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini o'zbek milliy xalq amaliy san'ati namunalari asosida tayyorlash», J.Darmenovning Qoraqalpog'iston Respublikasi milliy san'ati vositasida tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlashning nazariy asoslari, shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik jihatlarini A.Sulaymonov, N.Tolipov, R.Hasanov, B.Qo'chqorov, N.Abdullayev, S.Abdullayev, B.Azimov, O.Qodirov va boshqalar tomonidan ko'plab shu kabi ilmiy ishlar tadqiq etilgan bo'lsada, aynan talabalarni tasviriy faoliyatga yo'naltirishda kasb-hunar kollejlarida talabalarni natyurmort ishlashga o'rgatish metodikasini ishlab chiqish orqali tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. O'zbekiston sharoitida bu omilning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-tarixiy negizlari hamda zamonaviy yondashuvlari mavjudligi bois ham bu yo'nalishda maxsus tadqiqot o'tkazishni taqozo etadi. Shu va boshqa omillar bitiruv malakaviy ish mavzusini «

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi» deb nomlashga asos bo'ldi. Mazkur muammoni tadqiq qilishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan va boshqa mualliflarning ilmiy asarlari, monografiyalari biz tadqiq qilayotgan muammoni ham nazariy, ham amaliy mushohada qilishda amaliy yordam berdi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini tadqiq etish" yo'nalishi doirasida bajarildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi quyidagi o'quv tarbiyaviy masalalarni qo'yadi, ya'ni:

- O'quvchilarga tasviriy san'atdan nazariy va amaliy ta'lim berish;
- O'quvchilarga tasviriy va amaliy san'at tarixi va rivojlanish bosqichlari, qonun-qoidalar haqida ma'lumot berish;
- O'quvchilarni tasviriy san'at orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

-O'quvchilarga tasviriy san'atdan metodik tavsiyanomalar, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratib berish;

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti – O'rta umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlari jarayoni hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti – O'rta umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etishning mazmunli va samarali metodlari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. O'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilarni tasviriy faoliyatga yo'naltirishda sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanish jarayoni va tasviriy san'at fanlarini o'qitilish holatini o'rganish va tahlil qilish.

2. O'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilarni tasviriy faoliyatga yo'naltirishda sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanib, ularning bilim va malakalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

3. O'quvchilarni tasviriy faoliyatga yo'naltirishda sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanib, ularni kasbga o'rgatishda tasviriy san'at fanlarini o'qitishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining farazi: – O'rta umumta'lim maktablarida maqsadga muvofiq tashkil etilgan sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlari o'quvchilarda quyidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi mumkin;

- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyadan nazariy va amaliy bilimlarini yuksaltirish va bilganlarini o'quvchi yoshlarga yetkaza olish qobiliyatini o'stirish;
- tasviriy va amaliy san'atga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish;
- badiiy ijodga yo'naltirish.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari: sifatida O'zbekiston

Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “O’rta umumta’lim maktablarini tashkil etish va ularni faoliyatini boshqarish to’g’risida”gi qarorlarning qabul qilinishi, mavzuga oid pedagogik, psixologik adabiyotlar, buyuk mutafakkir va tasviriy va amaliy san’at ustalarining qalamtasvir va rangtasvir haqida qoldirgan boy meroslaridan foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining tajriba-sinov bazasi: tadqiqotning asosiy tajriba-sinov ishlari O’rta umumta’lim maktablarida amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (2014-2015 o’quv yili): tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar va dissertatsiya ishlarini o’rganish va tahlil qilish, pedagogik ish tajribalari bilan tanishish, o’quv jarayonini kuzatish, tadqiqot mazusining asosnoma-rejasini ishlab chiqish, me’yoriy, metodik, huquqiy, joriy yo’l-yo’riq hujjatlari bilan tanishish. Tajriba-sinov maydonlarini belgilash, mavzu yo’nalishi bo’yicha pedagogik tadqiqotlar o’tkazish, tadqiqot natijalari haqida maqolalar tayyorlash va e’lon qilish.

Ikkinchi bosqich (2015-2016 o’quv yili): pedagogik tadqiqotlarni yanada faollashtirish, muhim xulosalar chiqarish, tajriba-sinov maydonlarida shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini olib borish va o’tkazish, tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil etish va ommalashtirish, tadqiqot ishi mazmuniga aniqliklar va qo’shimcha materiallar kiritish, tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy maqolalarda yoritish, ishlab chiqilgan metodika bo’yicha olingan natijalarni umumlashtirish, dissertatsiya holiga keltirish va himoyaga olib chiqish belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

- O’quvchilarni tasviriy faoliyatga yo’naltirishda sinfdan tashqari rangtasvir mashg’ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanish jarayoniga nisbatan qo’yiladigan talablarni asoslanishi;

-O’rta umumta’lim maktablarida bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san’at mashg’ulotlarining samarali usul va metodlardan foydalanib, ularning bilim va malakalarini shakllantirishning ilmiy-metodik

asoslarini ishlab chiqilishi;

- Yoshlarni tasviriy faoliyatga yo'naltirishda sinfdan tashqari rangtasvir mashg'ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanib, ularni kasbga o'rgatishda tasviriy san'at fanlarini o'qitishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqilishi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. O'rta umumta'lim maktab o'qituvchilariga metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish metodlarini ko'rsatib berishdan iborat. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'at bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish hamda o'z kasbining malakali mutaxassisi bo'lib yetishishlariga erishish.

1-Bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari

1.1. Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atning o'qitilishi

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta'limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Shu maqsadda 1992 yil «Ta'lim to'g'risida» gi qonun e'lon qilindi. Bu hujjatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori "Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi kontsepsiyasi" ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi kollegiyasining 5- may 1993 yilgi 5-5 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur kontsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

- mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar;

- ta'lim-tarbiyani milliy madaniyat va san'at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;
- ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish;
- maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish;
- O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g'oyalar so'zsiz barkamol, komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'nalishlari bayon etildi.

Kontseptsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at va badiiy mehnat", 1-7-sinflar uchun 245 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at" dasturlari tayyorlandi. Shuningdek, 1-8 sinflar uchun mo'ljallangan 560 soat "Tasviriy san'at" dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dasturlar ko'p nusxada nashr etilib, amaliyotga joriy etildi.

Yangi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo'lib, u tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, ta'lim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o'z ifodasini topdi. Tasviriy san'at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun o'quv-metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Natijada R.Hasanov va H.Egamovlarning birinchi sinf o'qituvchilari uchun "Tasviriy san'at va badiiy mehnat darslari" (Toshkent: O'qituvchi, 1997),

R.Hasanovning 5-sinf o`qituvchilari uchun “Tasviriy san’at darslari” (Toshkent: O`qituvchi, 1997) nomli qo`llanmalari chop etildi.

Yangi dasturlar asosida tasviriy san’at darsliklarni yaratish muammosi paydo bo`ldi. Natijada 1996-1998 yillar davomida 1-4 sinflar uchun “Tasviriy san’at va badiiy mehnat” darsliklari yaratildi, biroq ulardan 1998 yilda faqat birinchi sinf darsligi chop etildi, xolos. Mazkur darslik O`zbekiston maktablari uchun rus, qozoq, qirg`iz, turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida ham nashr etildi. Boshqa sinflari esa 1999 yilda yangi o`quv rejalari va ta’limning davlat standartlari ishlab chiqilishi munosabati bilan nashr etilmay qoldi. Ta’limning davlat standartida bu o`quv predmetiga har bir sinfda haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi. R. Hasanovning fakultativ mashg`ulotlar uchun “Tasviriy san’at” (1989), “O`qituvchining o`zi ustida mustaqil ishlash dasturi” (1993), “Tasviriy san’at darsliklarini yaratish mezonlari” (1994), “Tasviriy san’at asoslari” (2009) qo`llanmasi, O.Xudoyorovanning “O`zbekiston maktablarida tasviriy san’atni o`qitish tarixidan” (1993), B.Boymetov va N.Tolipovlarning “Maktabda tasviriy san’at to`garagi” (1995) nomli risolalari ham amaliyotchilarga yetkazildi.

O`zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining “San’at va chizmachilikni o`qitish nazariyasi va metodikasi” bo`limida “O`qituvchilarni tasviriy san’atdan mustaqil ishlari”, “Tasviriy san’atdan sinfdan tashqari ishlar metodikasi” ga oid tadqiqotlar ham olib borildi.

1995 yilda buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 540 yilligi munosabati bilan pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida “Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o`rganishning pedagogik ahamiyati” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o`tkazildi. 2000 yilda esa Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi munosabati bilan “Kamoliddin Behzodni jahon tasviriy san’ati va ta’lim tizimiga ta’siri” mavzusida ana shunday anjuman o`tkazildi. Ikkala anjuman materiallari ham to`plam shaklida chop etildi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hujjatlarining e'lon qilinishi katta tarixiy voqea bo'ldi. U amaldagi ta'lim tizimidan tubdan farq qiluvchi yangi tizim bo'lib, unda ta'lim sohasini 1997-2005 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish printsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi.

Ushbu hujjatda dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida barcha fanlardan davlat ta'lim standartlarini yaratish va amaliyotga joriy etish belgilab berildi. Barcha fanlar qatori "Tasviriy san'at" o'quv predmetidan ta'limning davlat standarti ham tayyorlandi. Mazkur standartda o'quvchilarni 1-7 sinflarda tasviriy san'atdan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar belgilab berilgan edi. Unda tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko'rsatmalar ham bayon etilgan bo'lib, tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari sifatida borliqni idrok etish (1-4 sinflar), badiiy qurish-yasash (1-4 sinflar), naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflar), san'atshunoslik asoslari (1-7 sinflar), kompozitsiya (1-7 sinflar), bo'limlari qayd qilindi.

Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan davlat ta'lim standarti bo'yicha 1999 yilda o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra tasviriy san'at o'quv predmeti 1-7 sinflarda o'qitilib, uning nomi hamma sinflarda "Tasviriy san'at" bo'lib qoldi. Bu o'zgarishlar asosida yangi darsliklar yaratish muammosi paydo bo'ldi. Bu darsliklar 2001 yilda R.Hasanov tomonidan 1-3 sinflar uchun tayyorlandi. Lekin, ular Respublika xalq ta'limi Vazirligi darsliklar sonini ko'payib ketkanligini vaj qilib ularni

nashr etishni lozim topmadi. Bulardan biri birinchi sinf darsligi 2001-2002 yillarda chop etildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi. Bu tadqiqotlarning natijalari dissertatsiya shaklida himoya qilindi. Ular R.Hasanovning 1994 yilda "O'zbekiston umumta'lim maktablarida badiiy ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari" mavzusida doktorlik, A.Turdalievning 1996 yilda "Tasviriy san'at darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni badiiy kasb-hunarga yo'llash", O. Xudoyorovning 1997 yilda "O'zbekiston umumta'lim maktablarida tasviriy san'at o'qitilishining shakllanishi va taraqqiyoti", B. Qo'chqorovning 2010 yilda "tasviri san'atdan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni tabiatga estetik munosabatini shakllantirish" mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalaridir.

Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Xususan, 2002 yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo'limlar faoliyat ko'rsata boshladi. Tasviriy san'at o'qituvchilari Xiva, Denov, SHahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi.

Mustaqillik yillarida R.Hasanov tomonidan tayyorlangan va chop etilgan 1-7-sinflar uchun "Tasviriy san'at" dasturi (1994 yil.) "Tasviriy san'at ta'limi kontsepsiyasi" (1995 yil.) "Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti" (1999 yil.) "Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish" (2000 yil.) "Tasviriy san'atdan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baxolash" (2003 yil.) "Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi" (2003 yil.) "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" (2004 yil.) "Tasviriy san'at. 1-sinf uchun darslik". (2000-2010 y.y), "Tasviriy san'at" 2-sinf uchun darslik. (2008 yil.) (Hammualliflikda), "Tasviriy san'at. 3-

sinf uchun darslik” (2008 yil;hamkorlikda), “Tasviriy san’at” 2-sinf.

O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma (hamkorlikda), “Tasviriy san’at”. 3-sinf. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma (hamkorlikda), nomli ishlari mamlakatimiz umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’atni o’qitilishini yaxshilashga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatdi.

1.2. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at mashg’ulotlarining mazmuni.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at o’quv predmetining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan va ta’limning davlat standartlariga asoslangan holda ta’lim mazmuni aniqlanadi. Tasviriy san’at dasturida uning quyidagi besh turi belgilangan;

1. Borliqni idrok etish (1-4 sinflarda). 2. San’atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda)
3. Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda). 4. Kompozitsion faoliyat (1-7 sinflarda).

Borliqni idrok etish o’quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o’stirishda muhim ro’l o’ynaydi. Borliqni idrok etish mashg’ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o’tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak-atrofdagi nafislik va go’zallikni ko’ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, tabiatga qilingan sayohat jarayonida zarur hollarda ayrim ob’ekt va hodisalarni qalam, bo’yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

Bunday darslarda bolalar sinf va sinfdan tashqari o’simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko’rinishlari, kayfiyati (quvonchli, g’amgin, o’ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo’ladilar. Boshlang’ich sinflarda borliqni kuzatish va ular haqidagi suhbatlar o’quvchilarga hayotdagi ba’zi bir hodisalarni kengroq bilib olishga yordam

beradi. U narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma'lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o'stirishka ham imkon beradi.

Tabiat va borliqni kuzatish jarayonida bolalarni uni sevishga, asrashga o'rgatiladi. Tabiatga qilingan sayohatlarda ularning ayrim jihatlari fasllarga bog'liq holda o'zgarib turishligi bolalarga tushuntiriladi. Shuningdek, bunda bolalarni fazoviy tasavvurlari ham o'stiriladi va planlik, chiziqli va havo perspektivasiga ham e'tibor beriladi. Borliqni kuzatish bevosita tasviriy ijodiy faoliyat bilan bog'liq ekanligi, borliqni bilmasdan turib sifatli tasviriy ishlarni bajarish mumkin emasligi bolalar ongiga yetkaziladi.

Borliqni idrok etish mashg'ulotlarini vazifalariga rioya qilgan holda quyidagi mazmunda mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi. 1. Kuz, qish, bahor fasllarida tabiatni o'ziga hos xususiyatlarini o'rganish; 2. Gullar, hashoratlar, dekorativ baliq va qushlarni kuzatish.; 3. Tabiat mo'jizalari, baxorgi va kuzgi ishlar bilan tanishish va boshqalar.

Yuqorida qayd qilinganidek, bunday mashg'ulotlardan maqsad bolalarni borliqni bilish, undagi narsa va hodisalarni o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, tuzilishi, shakli, o'lchov nisbatlari, fazoviy holatlari, ularni yil fasllariga qarab o'zgarishlarini anglab yetishlariga erishishdan iboratdir. O'rganish zarur bo'lgan ob'ektlarni naturadan kuzatishning imkon bo'lmagan taqdirda o'qituvchi darsda bolalarni san'at asarlarining reproduksiyalari, slaydlari, foto nusxalarini namoyish etish orqali o'z maqsadiga erishadi.

San'atshunoslik asoslari bo'limi o'quv predmetining muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5-7 sinflarda mustaqil bo'lim sifatida o'zining o'quv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy-bezak, me'morchilik san'atlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bo'limning maqsadi o'quvchilar tomonidan san'at asarlarini ongli idrok etish va baholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushinishga yordam berishda iboratdir.

San'atshunoslik asoslari bo'limi o'quvchi shaxsining estetik rivojiga ko'maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san'at asarlari

orqali tevarak-atrofidagi hayot go'zalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, san'atni sevishga o'rgatadi.

O'quvchilar bilan san'atshunoslik asoslari bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ular mumtoz madaniy meros bilan tanishtirib boriladi, uning buyuk an'analari va san'atning halq uchun xizmat qilishi, san'atdagi turli oqimlar va yo'nalishlar to'g'risidagi tushunchalar hosil qilinadi.

Tasviriy va amaliy san'at asarlarini idrok etishga oid o'quv materiallari o'quvchilarning amaliy ishlari bilan bog'langandir. San'at asarlarining nusxalarini bolalarga ko'rsatish va ularning tahlili o'quvchilarda san'atga qiziqish uyg'otadi va ularni shu soxaga yo'llaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan g'oya, asosiy fikr va qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tushuntiriladi.

Dekorativ-amaliy san'atga doir san'atshunoslik asoslari darslarida amaliy-bezak san'ati, halq amaliy-bezak san'ati, o'zbek halq amaliy-bezak san'ati, liboslar, o'zbek va chet el xalqlarining milliy libodlari haqidagi bilimlar berish, xalq ustalari ishlatadigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Bunday darslarda Toshkentdagi xalq amaliy san'ati muzeyi va Respublikamizdagi xalq amaliy san'ati rivoj topgan markazlar, o'zbek xalq amaliy san'atining mashhur nomoyondalari hisoblangan Usta Shirin Muradov, Ota Polvonov, Hamro Raximova kabilar haqida ham suhbatlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Me'morchilik san'ati borasida esa me'morchilik san'ati va uni atrof-muhit bilan bog'liqligi, me'morchilikda go'zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me'morchilik, ularning turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik yechimining o'zaro bog'liqligi, fasad va inter'erdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me'morchilikda qo'llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Binolarning tashqi va ichki badiiy bezaklarining xarakteri, ularda ishlatiladigan materiallar bilan ham tanishtiriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston hududidagi eng qadimgi me'morchilik obidalari, O'zbekiston IX-XIX asr me'morchiligi, sharq va G'arb mamlakatlarida Uyg'onish davri me'morchiligi, O'zbekiston va jahonning hozirgi zamon ilg'or me'morchiligi yuzasidan mashg'ulotlar olib boriladi.

Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga san'atshunoslik asoslaridan quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1. Tasviriy san'at-san'atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbekiston hududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrosiyob, Varaxsha, Tuproq qal'a v.b joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatyura rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2. Haykaltaroshlik turlari-dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik; Relief (barelef, gorelef); yumaloq haykallar.

3. Grafika turlari-dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta jurnal grafikasi; targ'ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka, v.b.

4. Movaraunnahr miniatyura maktabi; Sharq miniatyura maktablari. Yevropada Uyg'onish davri tasviriy san'ati; O'zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san'ati; jahonning hozirgi zamon ilg'or tasviriy san'ati; jahon tasviriy san'atidagi asosiy oqimlari; dunyoning eng yirik tasviriy san'at muzeylari; O'zbekistonning eng yirik tasviriy san'at muzeyi. Jahonga mashhur eng buyuk rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo Da Vinchi, O'rol Tansiqboev, Chingiz Axmarov v.b.).

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlari narsaning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqalibolalarda kuzatuvchanlik, xotira, tipik belgilarni bilish imkonini

beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ular tik, yotiq, og'ma, egri, to'liqsimon chiziqlarni chizish, bo'yoqlar bilan tegishli yuzani bir meyorda bo'yash, och tusdan to'q tusga va aksincha to'qdan ochga o'tish, o'quvchilar to'g'ri va egri chiziqlarni teng bo'laklarga bo'lish malakalarni o'zlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog'oz formatini to'g'ri tanlashni hamda rasmni qog'ozda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishni o'rganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishlashni o'zlashtiradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar mo'yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo'yoqlari bilan ishlash yo'llarini o'rganadilar, imkoni bor joylarda ko'mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar.

Amaliy ishlarda odam, hayvon, qushlar gavdasining tuzilishi, ular qismlarining o'lchov nisbatlari, shakllarini to'g'ri aks ettirish malakalari takomillashtiriladi. Yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya yuzasidan nazariy ma'lumotlar berish bilan bir qatorda o'ziga qarab alohida va natyurmort ishlash yuzasidan amaliy ishlar bajariladi.

Tasvirlash jarayonida naturani tahlil qilish, ularning qismlarini bir-biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabilar rasm ishlovchining e'tibor markazida bo'ladi. Bunda, ayniqsa, chiziqlar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibliigi, ifodalangan go'zallikni zehnlab tasvirlay olishga alohida e'tibor beriladi.

Yuqorida qayd qilingan vazifalar 1-2 soat davomida qisqa muddatda (5-10daqqa) bajariladigan qoralama va ranglamalar shaklida bajariladi. Bu ishlar alohida mavzu asosida yoki mashg'ulot mazmunidan kelib chiqqan holda darsning boshlanish, o'rta yoki oxirida amalga oshiriladi. Yuqorida qayd qilingan vazifalar va topshiriqlar o'simlik va daraxt barglari, turli shakl va rangdagi gullar, meva va sabzavotlar, hunarmandchilik va amaliy san'at buyumlarini alohida va to'p holda natyurmort tarzida rasmini chizdirish orqali amalga oshiriladi.

Naturaga qarab bajariladigan topshiriqlar qush, hayvon, odam tasvirlarini to'la yoki xomaki rasmini ishlashni ham nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning tasviriy imkoniyatlariga mos keladigan bayroqcha, soat, havo shari, o'yinchoq mashinalar, kapalak, tilla qo'ng'iz kabi hashoratlarni rasmini ishlash nihoyatda qo'l keldi. Bunday mashg'ulotlar uchun natura tanlashda o'qituvchi, ularning estatik ko'rinishiga, shakl, rang jihatidan bolalarda qiziqish uyg'otadigan bo'lishligiga o'z e'tiborini qaratadi.

Kompozitsion faoliyat o'z mazmuniga ko'ra uch qismga bo'linadi.

1. Rangtasvir kompozitsiyasi. 2. Dekorativ kompozitsiya 3. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

Kompozitsion faoliyat o'quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatni, o'z fikr va taassurotlarini rasmda obrazli qilib tasvirlash hamda badiiy didni o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari tevarak-atrofdan olingan ko'rinish va hodisalarni uning barcha janrlarida (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, animalistik, afsonaviy, marina) amaliy ishlar shaklida balarishni nazarda tutadi. Bu amaliy ishlar bevosita yorug' soya, rangshunoslik, perspektiva yuzasidan olib boriladigan nazariy bilimlar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunday amaliy mashg'ulotlarda bolalar naturani kuzatish, (qoralama, ranglama, uzoq davom etadigan rasm ishlash) xotiradan, tasviriy san'at asarlaridan olgan bilim va malakalarga tayangan holda ish olib boradilar. O'quvchilar tanlangan mavzuga ko'ra uning elementlarini qog'oz yuzasidan bir-biriga bog'liq holda joylashtirish, yaxlit kompozitsiyani hosil qilish, mavzu mazmuniga mos kompozitsiyani topish uchun bir qancha xomaki ishlar, eskizlar ishlaydilar. Kompozitsiya tuzishda bolalar obrazlarning tipik belgilarini tanlab olib, qismlarning o'rnini almashtirib, qo'shimcha detallar kiritish orqali kompozitsiya mazmunini boyitish kabilarga alohida e'tibor beradilar. Unda kompozitsiyaning bir butunligi, qismlarni, shakllarni, ranglarni xillashtirish va ular o'rtasidagi bog'lanish va kontrastlik,

asardagi hamma vositalarning bosh g'oyaga bo'ysindirish kabi qonun qoidalar hisobga olinadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi darslarida o'quvchilar bo'yoqlar bilan tasvirlash, tasvirda asosiyni bo'rttirib ko'rsatish, tasvirda uzoq-yaqinlikni ifodalashda perspektiva qoidalariga amal qilishni o'rganadilar.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarida badiiy-bezak ishlarida foydalaniladigan yo'lsimon, kvadrat, tortburchak, doira naqshlar, ochiq va yopiq naqshlar, nomoyon naqsh namunalaridan ko'chirish va mustaqil ijodiy ishlarni o'rganadilar. Bu ishlar bevosita buyum bezagi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, taklifnoma, tabriknomalar tayyorlash kabi amaliy ishlar ham bajariladi. Milliy va chet el xalqlarining liboslari uchun eskizlar tayyorlanadi, tabiiy shakllarni stilizatsiyalash yuzasidan mustaqil ishlar olib boriladi. Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarida halq ertaklari, hikoyalar, dostonlar, she'rlar mazmuniga eskizlar ishlash katta o'rinni egallaydi. Bunda bolalar kitoblarni ichki va tashqi (muqova) bezagiga doir (bosh bezak, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiya) ishlarni bajaradilar. Dekorativ ishlarda o'quvchilar buyumlarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o'zaro bog'liqligi haqida elementar tushunchalarga ega bo'ladilar hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsani didsiz, pala-partish ishlangan narsalardan farq qilishni o'rganadilar. Dekorativ kompozitsiya darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlari tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingani haqida tushuncha beriladi.

Binobarin, naqsh ishlash mashg'ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o'zgartirishi, uni soddalashtirishi, unga yangi elementlarni qo'shishi mumkunligini o'rganib oladi. Shu bilan birga o'quvchilar turli halqlarning bugungi dekorativ-amaliy san'ati hamda dizayn san'ati bilan tanishadilar. Dizayn ishlarida bolalar dazmol, choynak uchun taglik, quticha, libos uchun bezak eskizi, televizor, kreslo, yengil avtomobilni yangi markasi eskizlarini ishlash bilan shug'ullanadilar.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarida odam, hayvon, qushlarning alohida haykallari, sport, hayvonot olami mavzularida, xalq ertaklari

asosida tasviriy ijodiy ishlar bajariladi. Dekorativ haykaltaroshlik o'quvchilarda turli dekorativ bezakli rel'eflar va o'yinchoq haykallari ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi. O'zbek halq kulolchilik san'ati an'analari asosida "Toychoq", "Qo'zichoq", "Bo'taloq" kabi o'yinchoq haykalchalar ishlanadi.

Fantastik mavzularda, dev, ajdarho, kentavr, suv parisi, xumo qushi kabilarni dekorativ haykallari ijodiy tarzda bajariladi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar stek bilan ishlash, loy yoki plastilinni dumaloqlash, busib yapaloqlash, cho'zish usullarini o'rganadilar. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo'lib, ularning birinchisi alohida-alohida loy yoki plastilin bo'laklarini bir-biriga yopishtirish orqali haykal ishlash bo'lsa, ikkinchisi yaxlit loy bo'lagiga stek bilan ishlov berish orqali haykal ishlashdir. Bularni bolalar yakka yoki guruh bo'lib, bajaradilar. Kompozitsiyalardagi obrazlar soniga qarab, guruhdagi bolalar soni kam yoki ko'p bo'lishi mumkin.

1.3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at mashg'ulotlarida natyurmort kompozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlari

Har qanday san'at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. "Kompozitsiya" (lot. compositio)- tuzish ijod qilish demakdir. U asar tuzilishida qismlarning asar g'oyasiga muvofiq joylashtirilishini va o'zaro munosabatini anglatadi. Tasviriy san'atda kompozitsiyaning mukammal bo'lishi asosiy maqsadlaridan biri. San'at ustalari insoniyat san'ati tarixining barcha bosqichlarida kompozitsiya yaratishni o'ziga xos yutuqlari bilan yangilanib borganini kuzatish mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, antik Yunonistonda shakllangan bo'lsa, ilk Uyg'onish (Renesans) davrida yanada boyidi, yangicha tus oldi. Kompozitsiya qonuniyatlarining shakllanishini dastlabki davridayoq to'g'ri perspektiva qonunlariga e'tibor berila boshlandi. Uyg'onish davriga kelib esa bu muammo ilmiy asoslanib, odam, hayvonot dunyosi anatomiyasini chuqur o'rganilganligi ma'lum.

Antik Yunoniston san'atida katta saboq bo'lgan Uyg'onish davri ijodkorlari odam qiyofasini aks ettirishda badiiy obraz, garmoniya, perspektiv

qisqarish va shu kabilar orqali kompozitsion yechimda aniq natijalarga erishdilar. Ayniqsa, Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelandjelo kabi yirik san'at vakillarining ijodiy faoliyati butun jahon tasviriy san'ati ustalarining e'tiborini o'ziga jalb eta oldi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tasviriy san'atda kompozitsiya yaratishning sxematik shakllari har xil davr klassik san'at ustalari tomonidan o'rganilib takomillashtirilgan. Bu o'rinda Karavadjo, Rembrant, El Greko, SHarden kabi rassomlar faoliyatini ta'kidlamasdan o'tib bo'lmaydi. Peterburg badiiy akademiyasida ta'lim olgan va keyinchalik mazkur bilim yurtida ta'lim bergan mashhur rassomlar - A.Ivanov, K.Bryullov, I. I Repinga o'xshagan san'atkorlarning ijodlarida va ta'lim berishida kompozitsiyaning tuzilishi rassom xohishiga havola etilar edi. Bu ham tasviriy san'atni har tamonlama, chuqur o'rganish va mushohada qilishga bo'lajak rassom o'qituvchilarni ijodiy fikrlashga, jumladan, kompozitsiya tuzishda ijodiy jarayonni rivojlanishiga chuqurroq fikr bermog'iga yordam beradi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning simmetriya va assimetriya, muvozanat va ritm, turg'unlik (statik) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarning birinchi darajali narsalarga (asosiyga) bo'ysinishi, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm-tabiat yaratgan shakllarda gul va barglar tuzilishida, ularning daraxt novdasida joylanishida yaqqol ko'rinib turadi. Inson qo'li bilan yaratilgan narsalarda tabiatga taqlid qilish, u yaratgan shakllar chiroyidan nusxa olishga intilish namoyon bo'ladi. Natyurmort tuzish ijodiy ish. Unda rassomning didi va layoqati, kompozitsion madaniyati namoyon bo'ladi. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasm

chizishga havas hissini uyg'otadigan bo'lishi va albatta, kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim.

Natyurmort kompozitsiyasini yaratishda ham ijodiy jarayonning boshqa sohalaridagidek, ilhom, iroda, mehnat kabilar muhimdir. Darhaqiqat shunday ekan, natyurmortni yaratish jarayonida kompozitsiya metodlarining umumiy tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Kompozitsiya fani predmet sifatida o'quv jarayonida qalam, rang tasviri va san'at tarixi bilan bog'liq bo'lib, hozirgi umuminsoniy taraqqiyot bilan birgalikda rivojlanib bormoqda.

Tasviriy san'atning boshqa sohalaridagi kabi natyurmort kompozitsiyasida ham quyidagi element (unsurlar)ga amal qilinadi:

1. Predmetning shakli;
2. Predmetga tushib turgan yorug'lik;
3. Tasvirlanayotgan narsaning o'ziga xos bo'lgan rangi;
4. Predmetning fakturasi;
5. Predmetning masofada turgan holati (havo masofasi) kabilar o'z

aksini topgan bo'lsa, kompozitsiya talablari to'g'ri bajarilgan hisoblanadi. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, hajmi, materiali, sirti (fakturasi), rangi va och-to'qligi (ton) bilan bir-biridan farq qilishi kerak. Ammo bu farq juda keskin darajada bo'lishi ham noo'rin. Masalan, katta chelak yoniga qo'yilgan gugurt qutichasini ko'z ilg'amaydi, chunki ular o'rtasida uzviy bog'lanish sezilmaydi.

Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida bir-biriga va fon (orqa sath) ga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortning qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi. Mashhur rassom-pedagog B.Ioganson mohir mo'yqalam sohibi SHardenning «Piyozli natyurmort»ini ko'rib, mazkur natyurmortning yaratilishini tasavvur qilib, quyidagi fikrni bayon etadi. Aytaylik, SHarden oshxonaga kirganida ko'zi stol ustidagi ko'k piyoz boshlariga tushgan-u, piyozning cho'ziq shakli va nafis rangi

uning diqqatini jalb qilib, qiziqtirib qolgan. Xuddi shu narsa surat kompozitsiyasining cho'ziq bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. SHakli jixatidan unga zid narsalar izlab, SHarden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro'zg'orda zarur bo'lgan har xil buyumlarni mis qozon, sopol va shisha idishlarni tanlagan. Rassom ataylab shakli, o'lchami, materiali bir-biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatning o'ziga, undagi narsalarning rang barang va turli-tumanligiga qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jixatdan juda sodda ko'rinadi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechtasini olgan xolos.

Mazmunan bir-biriga monand narsalarni tanlab olgandan keyin, ulardan shunday bir yaxlit guruh tashkil qilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta, uning tasvirini yaratish ishtiyoqini hosil qilsin.

SHarden natyurmort tuzish uchun tanlangan narsalar- mis qozon, sopol cho'mich, yashil rang shisha idish, ko'k piyoz boshlari, ikkita olma va ikkita tuxum. Bular hammasi ham oshxona ashyolari bo'lib, shakllari tuzilishlari, sirlari va ranglari har xil. Aytaylik, rassom natyurmortni faqat qozoncha va katta shishadan tuzsa qiziqarli bo'larmidi? Yo'q albatta, yana beixtiyor narsalar tasodifan shunday holatda joylashganmi yoki SHarden ularni ongli ravishda shu tartibda qo'yganmikan, degan savol tug'iladi. Bu savolga javob topish uchun qo'yilgan natyurmortning qanchalik tabiiyligini tushunishga harakat qilib ko'ramiz. Ikki-uchta narsadan ham natyurmort tuzish mumkinmi? Mumkin, albatta, masalan, rasmdagidek qo'yib ko'raylik. Bunday qo'ysakchi?

Bir oz durustroq chiqdi. Nima uchun? CHunki narsalar o'rtasida uzviy bog'lanish paydo bo'ldi. Qulay vaziyat. Nima uchun? CHunki birinchi gal katta shisha sopol idishdan uzoqda qolib, ajralib turgan edi. Ikkinchi gal esa ular o'rtasida bog'lanish paydo bo'ldi - katta shisha orqali fon va sopol idish yaxlit guruh bo'lib ko'rindi. To'q yashil rang shisha idish bilan qizg'ish kesak rang sopol - yog'log'ini kul rang fon umumlashtirib, hamohang qilib ko'rsatdi.

Endi yog'log'i ichiga ikkita tuxum solib ko'raylikchi. Natiurmortimiz ancha boyidi, chunki tuxumlarning rangi katta shishaning to'q yashil rangidan keskin farqlandi. Ranglar birikmasi boyroq bo'ldi: kul rang fonda to'q yashil, qizg'ish va oq ranglar jonlandi. Lekin rassomda baribir qandaydir qanoatlanmaslik hissi saqlanib qoldi, chunki shishaning o'ng va chap tomonlaridagi bir xil chiziqlar, uning shaklini zerikarli ko'rsatib turibdi. Nihoyat, rassom sharsimon rangli olmani tanlab yaxshi natijaga erishdi. Endi natiurmort qiziqarli chiqdi, chunki silliq rangdor olma natiurmortdagi ranglar qatorini yanada to'ldirdi. Ammo mo'yqalam sohibi yana mamnun bo'lmadi, chunki bu yerda hamma topilgan shakllarni yaxlitlantirib ko'rsatadigan bog'lovchi shakl yetishmasdi. Nihoyat, u qo'yilgan buyumlardan keskin farq qiluvchi narsa-piyoz boshlarini qo'yadi. Endi natiurmort yana boshqacha ko'rinishda namoyon bo'ldi.

SHunday qilib, rassom kompozitsion butunlikka erishdi, natiurmortni ishtiyoq bilan tasvirlasa ham bo'lardi. Lekin uning hayoliga yangi fikr kelib, yana boshqacharoq shakl qo'shish istagi paydo bo'ladi. U natiurmort tarkibiga mis qozonni kiritadi. Qozon bandining holati ham tasodifiy emas, u piyoz boshlari cho'ziq shaklining davomi bo'lib ko'rinib turibdi. Qozon chekka chiziqlarining bir-biriga yondoshligini buzish uchun esa mohir mo'yqalam sohibi natiurmortga ikkinchi olmani kiritadi, va nihoyat, natiurmortning tugalligiga erishadi. Endi ko'z o'ngimizda rassom ijodiyotining qimmatboho durdonalaridan biri to'la-to'kis namoyon bo'ldi. Qo'yilgan narsalarning materiali- mis, shisha, sopol va hokazolar shakllari -cho'ziqroq, dumaloq (tuxumlar), sharsimon (olmalar), tsilindrsimon (qozoncha), shar va tsilindr birikmasi (katta shisha), yarim shar (yog'log'i), cho'ziq-tsilindr (piyoz); o'lchamlari-katta qozon, o'rtacha shisha, kichikroq yog'log'i, mayda tuxum va olmalar. Ranglari: misning qizg'ish rangi; to'q yashil shisha; kesak rang sopol yog'log'i; yashiltob piyozlar; sarg'ish lola rang olmalar; oppoq tuxumlar -hammasi xilma-xil va rang-barangdir, Bular hammasi ulkan mo'yqalam sohibinig yuksak talanti, tabiatning beqiyos boyligini ko'ra olishi va to'g'ri qabul qila olishi natijasidir.

"Piyozli natyurmort"ni diqqat bilan kuzatgan kishi uning uchburchak ichiga joylashtirilganini ko'radi. To'g'ri burchakli uchburchakning uzun tomoni (piyoz boshlari) surat tekisligini diagonal bo'ylab kesib o'tgan. Uchburchak ichida narsalar shunday joylashganki, qozonning qorong'i tomonidan surat tekisligigacha bo'lgan masofa, taxminan, surat tekisligining chap chekkasidan to piyozning ildizlarigacha bo'lgan masofa bilan barobar.

SHuningdek, yuqoridan mis qozongacha bo'lgan masofa, surat tekisligining pastki chegarasidan olmalar asosigacha bo'lgan masofa bilan teng. SHular hammasi birgalikda san'at asarining kompozitsiyasini tashkil qilib, uni "o'qishga" imkoniyat yaratgan.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uning tabiiyligidir. Demak, natyurmort tuzish, uni o'rnatish vaqtida yaxlitlikka, tugallikka erishishga harakat qilish lozim. Buning uchun esa klassik namunalarni ko'plab tahlil qilib, u yoki bu asar nima uchun odamga shunchalik ta'sir etadi, zavqini keltiradi, degan savolga javob izlash foydalidir.

Odatda, rasm chizishga o'rganish mashg'ulotlari natyurmort ishlashdan boshlanadi. CHunki natyurmort qalam va bo'yoqlar bilan rasm ishlashning asosiy qonunlarini o'rganishda zarur ko'nikmalar hosil qilish uchun juda qulaydir. Har xil shakllarning tuzilishini tushunish, ularning hajmdorligini yorug'-soya vositasida ifodalashni bilish uchun geometrik jismlar va shakli ularga o'xshash bir qator ro'zg'or buyumlarining rasmi chiziladi.

Natyurmortning manzara yoki inter'erga nisbatan abzalligi yana shundaki uni qo'yib olgandan keyin, bir necha kun joyidan qo'zg'atmasdan har xil qarash nuqtaliridan qayta-qayta tasvirlash mumkin bo'ladi. Bu esa ayniqsa o'qish, o'rganish davrida qulaydir.

Natyurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi ataylab tuzadi, tafakkuri kuchi bilan barpo etadi. O'quv

natyurmortining kompozitsiyasi, bir tomondan, estetik talablariga, ikkinchi tomondan ta'limning didaktik talablariga javob berishi kerak.

Natyurmort postanovkasi puxta, uzoq vaqt o'ylab mulohaza qilib qo'yiladi. Unga juda ko'p narsa kiritilmaydi, lekin ularning shakl va ranglari har xil bo'lishiga e'tibor berish kerak. /Bitta postanovkada sirtlari hap xil narsalarning, masalan, chinni yoki sopol idish, metal yoki yog'och buyum, har xil rangli sidirg'a gazlamalarning kiritilishi asar mazmunini boyitadi va qiziqarli qiladi. Silliqliq yaltiroqli sirtli idishni sirti jilvasiz narsa bilan qirrali buyumni dumaloqlik shakli bilan yonma - yon qo'yilsa, ularni taqqoslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tug'iladi.

Natyurmortda asosiy talablardan biri narsa o'lchami, rang va ton jihatidan ajralib turishi hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo'yilishidir. Bu surat mazmunini ochishda so'z boshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rttirib ko'rsatib turadi. Lekin u, albatta, surat tekisligining o'rtasida turishi shart emas, unda postanovka zerikarli chiqishi mumkin. Ko'pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal siljitib qo'yadilar, muvozanatni saqlash uchun qarama-qarshi tomonda rangi va och-to'qligi unga zid bo'lgan predmet oladilar. Atoqli natyurmortnavislar Sezan, SHarden, Xrutskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar.

Bir xil narsalardan bir necha ko'rinishda natyurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal ham hajmlarning katta- kichikligi va bo'laklarning och- to'qligi o'rtasidagi muvozanat saqlanib qolishi kerak. Bitta natyurmortda bir nechta teng ahamiyatli kompozitsion markaz bo'lmaydi, unda natyurmortning butunligiga putur yetadi. Har vaqt natyurmortdagi narsalar o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalaniladigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa u ma'nodor tuyuladi.

Natyurmortni o'rnatish vaqtida predmetlarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish, agar ma'qul bo'lmasa, yana qayta-qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik bo'lgunga qadar davom ettirish kerak. O'quv natyurmortining muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan

narsalarning fazoviy joylanishidir. Postanovkaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda biri ikkinchisi va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi. Ammo narsalarning tubi qisman bo'lsa ham, ko'rinib turgani ma'qul, shunda ularning o'zaro joylashuvini tasvirlash oson bo'ladi.

Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog'lash maqsadida unga cho'ziqroq shakldagi narsa kiritiladi. Surat tekisligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan pichoq, qoshiq, qog'oz o'rami, mo'yqalam va hokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan "kalit" bo'lib, tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmort murakkab va ko'p buyumli bo'lgan taqdirda, eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. U shakli, rangi va toni bilan ajralib ko'rinib, kompozitsiya markazini tashkil qilishi kerak. Qolgan narsalar birinchi va orqa planlarda joylashtiriladi.

Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi.

Natyurmortning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z ko'rigidan pastroqqa qo'yilgan natyurmort yotiq predmet tekisligida to'la-to'kis ko'rinib turadi, narsalarning asoslari, ularning o'zaro joylanishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlash uchun qulay bo'ladi.

Masalan, ko'za va olma yoki choy idish va kosacha olib, shunday joylashtiramizki, ular ko'rish maydonida, muvozanatli holatda ko'rinsin. Alohida buyumlarni o'z o'rniga qo'yishdan avval, albatta, natyurmort o'rnatiladigan joyni aniqlash kerak bo'ladi. Aytaylik, bu devor yaqinida stol bo'lsin. Birinchi navbatda, stol sathi bilan (yotiq tekislik) uning orqasidagi devor (tik tekislik) orasidagi nisbat aniqlanadi. SHundan so'ng natyurmortni o'rnatsa bo'ladi.

Ishni eng yirik narsani qo'yishdan boshlaymiz. Natyurmortning atrofdagi qismini xayolan chegaralab, choy idishni markazdan o'ng tomonga, bir oz siljitib qo'yib ko'ramiz. Devor yaqinida joylashgan choy idish e'tiborni o'ziga jalb qilishi bilan birga stol va devorning kerakli qismini ko'z bilan qamrab olishga yordam bermoqda. Endi likobcha ustidagi kosachaning o'rnini topish ham ancha oson

bo'ladi, uni choy idishga yaqin joyga-markazdan chaproqqa surib shunday masofada joylashtirish zarurki, ular o'rtasidagi bog'lanish sezilib tursin. Endi, garchi muvozanat sodir bo'lgan bo'lsada, bu buyumlar o'rtasidagi aloqadorlik yaqqol ko'rinmayapti, vaholanki, tomoshabinning nigohi bitta narsadan ikkinchisiga sakrab o'tishi kerak. Bu holni yo'qotish maqsadida choy qoshiqcha olib, uni stol ustiga har ikkala buyum oralig'idagi masofaga shunday holatda joylashtirish kerakki, u buyumlarni bir-biri bilan bog'lab, postanovkaga tugallik baxsh etsin.

Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'laroq ochib berish uchun, yorug'lik nurlari oldidan va yonidan tushadigan bo'lishi kerak. SHunda natyurmortdagi predmetlarning yorug'lik manbaiga qaragan tomonidan yorug'lik, qarshi tomonda soya, siyrak soya, refleks va tushuvchi soyalar aniq ko'rinib, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini ta'minlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan berkitish mumkin, bunda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi, birinchi plandagilar ravshanroq ko'rinadi. Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa, natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritgich qo'yiladi. SHunda oldindagi narsalarda yorug'-soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirlari yaqqol ko'rinadi, ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalarda qarama-qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to'q joylari bilan umumlashib ko'rinadi. Lekin natyurmort bo'yoqlarda tasvirlanadigan bo'lsa uni deraza yaqiniga, kunduzgi yorug'lik nurlari bilan oldindan va bir oz yon boshdan yoritiladigan qilib qo'ygan ma'qul, chunki sun'iy yorug'likda ranglar (ayniqsa sariq va ko'k) o'zgarib ketadi.

Vazifa natyurmortdagi narsalarning asl (lokal) ranglarini aniqlashdan iborat bo'lganda, u deraza ro'parasidagi devor yoniga qo'yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomondan tushadi, soya va reflekslar unchalik ko'p

bo'lmaydi va predmetlarning o'z rangi yaqqol ochiq-oydin ko'rinadi. Narsalarning yaqqol ko'rinishi fon (orqa sath) uchun gazlama tanlashga ham bog'liq.

Avvaliga fon uchun tanlanadigan gazlamalar yaxlit, sidirg'a va nursizroq bo'lgani ma'qul, chunki olachipor yorqin, rangli gazlama ko'zga aniq tashlanib, natyurmortning o'zini ko'rishga xalaqit beradi. SHuni ham hisobga olish kerakki, oqish fonda qoramtir narsalar, to'q fonda esa, aksincha, oq narsalar ravshan ko'rinadi. Ko'pincha natyurmort tarkibiga ham oq, ham qoramtir narsalar kirganda, unga o'rtacha kul rang tusli fon tanlanadi. Bunaqa fon postanovkani yaxlitlashtirib ko'rsatib, tasvirlashda qulaylik yaratadi.

Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (drapirovka) kiritiladi. Orqa fonga va predmet stoliga to'shaladigan gazlamaning chit, xolst, shoyi, baxmal, movut) xarakteriga mos holda mayda va yirik burmalar solib o'yish mumkin. Bunda parda, dasturxon, ro'mol, sochiqlar o'zining muayyan vazifasini bajarish holida joylashgani ma'qul. Gazlama devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo'yilsa, u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakldagi burma hosil qiladi. Agar mato qandaydir buyum ustiga tashlansa burmalar shu buyumning shakli bilan bog'liq ko'rinishda bo'ladi. Lekin juda ko'p sonli va mayda burmalarni tasvirlash qiyin, shuning uchun dastlabki natyurmortlarda sidirg'a, g'ijimlanmaydigan, jilvasiz gazlamalardan foydalanish kerak. Yuqorida aytganlarimizdan ma'lum bo'ldiki, natyurmort postanovkasini qo'yish jiddiy va mas'uliyatli ish. Yaxshi qo'yilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar bo'lmaydi, uni old yoki yon tomondagi qarash nuqtalaridan kuzatilganda, mazmunli, yagona gurux bo'lib, ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

SHunday qilib natyurmort tuzish uchun:

- a) mavzu tanlash;
- b) natyurmort mavzuiga mos keladigan narsalar va gazlamalar topish;
- v) narsalarning shakli, tuzilishi, toni va ranglarini hisobga olib joylashtirish;
- g) predmetlarning hajmdorligini yaqqol ko'rinadigan tarzda yoritish zarur ekan.

SHular hammasi birgalikda natyurmort kompozitsiyasi (postanovkasi) deb yuritiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompozitsiya ustida ishlash talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Natyurmort kompozitsiyasini tasvirlashdan avval o'quvchi kub, shar, konus, tsilindr, piramida kabi asosiy geometrik shakllarning tuzilishi to'g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lishi lozim.

II- Bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilariga mavzu asosida rasm ishlash orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi

2.1. Tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari va uning o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi o'rni

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni, ayniqsa uning badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bolmaydigan o'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb

nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriyl, amaliyl va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo'yadi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi. Lekin, o'quvchini tasviriyl san'at asarlarini to'g'ri ko'rish va u xaqda fikrlay olish qobiliyatlarini namoyish qilish muhimdir. Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliyl o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida haddan ziyod, bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas. Maktablarda tasviriyl san'atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o'qitish metodlarini qo'llash zarur bo'ladi. Biroq tasviriyl san'atdan oliyl va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'llanilayotgan o'qitish metodlarining ayrim jihatlaridan foydalanish inkor etilmaydi. Shuningdek, ulardan to'laligicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalanish ham pedagogik jihatdan to'g'ri emas.

Maktabda tasviriyl san'at mashg'ulotlarining vazifalari haqida to'xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Tasviriyl san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyasini rivojlantirish; tasviriyl san'atning nazariyl asoslari (yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriyl, amaliyl me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish, uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2. Tasviriyl san'at darslarining qo'shimcha vazifalari, ular: borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy

tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarlarga yo'llash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan boglanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada, u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday o'quv predmeti ta'lim mazmunida, albatta, o'zbek halqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma'naviy merosni o'ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o'zbek halqining dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o'rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga maktablarda ta'lim mazmunining viloyat va shaharlar bo'yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, O'zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san'at va me'morchilikning rivojlanishida o'ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Rishton, Shahrisabz, Nurota, Marg'ilon, G'ijduvon, Urgut, Xo'jayli va boshqa shaharlarning san'atida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Milliy san'atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o'rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma halqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o'quvchilarga o'rgatmasdan turib, halqimiz jahon madaniyatida o'z o'rnini topa olmaydi. Aks holda, o'quvchilarimiz milliy qobiqqa o'ralashib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo'la olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko'p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san'at, dekorativ-amaliy san'at, me'morchilik san'ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o'quvchilarga tasviriy va amaliy san'atdan beriladigan malakalarni unutmasligimiz zarur.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan

asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

-o'quvchilarni tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish:

-o'quvchilarni estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go'zallikni xunik voqea va narsalardan farqlay bilishga o'rgatish;

-shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, hatti-harakatini qo'llab-quvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish:

-o'quvchilarning badiiy tafakkur va fikr doirasini kengaytirish va boshqalar. Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi. Dekorativ kompozitsiya darslarida o'quvchilar naqshlar, amaliy san'at buyumlaridagi go'zallikni his qiladilar va o'zlari ham shunday kompozitsiyalar tuzishga harakat qiladilar. Shu maqsadda, bolalarga halq amaliy san'ati namunalari ko'rsatiladi, ularning shakl va ranglarini tahlil qilib beriladi. O'quvchilar o'zbek va qardosh halqlarning naqshlarini kuzatish va o'rganish orqali ularning shakl va ranglaridagi go'zalliklarni, shakl va rasm ranglarining garmonik birligini tushunadigan bo'ladilar. Ming yillar mobaynida ustadan-ustaga, qo'ldan-qo'lga o'tib, har jihatdan takomillashib, go'zallashib borgan halq san'ati namunalari bolalarni xayratga soladi va ularda tajribali ustalar kabi ifodali amaliy san'at asarlari yaratish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Gullar, hayvonlar va parrandalarni natura sifatida kuzatish va tahlil qilish jarayonida o'qituvchi ularning tuzilishidagi shakl, rang, o'lchovlari, harakatlaridagi nafosatni qayd qiladi.

O'quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo'laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to'lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo'lishi, kapalaklar, qushlarning engil parvozi, bahorgi va kuzgu manzaralarning chiroyi, manjuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarining kechgi miltillab ko'rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday

estetik his-tuyg'uning o'sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya'ni "xushbichim", "quvonchli", "bayramdagidek" ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O'quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e'tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko'ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o'rgatiladi.

O'qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko'rsatish orqali yosh barglarni rangi och yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg'irdan so'ng o'simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo'ygandek ko'rinishi, ulardagi yomg'ir donalarining kumushdek yaltirab ko'rinishini takidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg'ish ranglarining oltin tusga kirganligini, to'kilgan barglarning shildirab "gaplashishi" obrazli ko'rinishda ifodalanadi. Bolalar o'z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so'zsiz tasvirlanuvchilarning o'lchovlari, proportsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proportsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va xayvonlarni shakl va rang jixatdan o'ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko'rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimadaligi haqida o'ylaydilar. O'quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o'ylar ekanlar, o'qituvchi o'z e'tiborini ularning tushunchasiga mos bo'lgan voqea va hodisalarning go'zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go'zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak - atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o'rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat his-tuyg'ularini uyg'otadi.

O'qituvchi san'atshunoslik asoslari darslarida o'lkamiz tabiati, halqimizning fidokorona mehnati, buyuk ajdodlarimizning mustaqillik uchun

qahramonona kurashi kabi mavzularda yaratilgan ko'plab asarlarini namoyish etish va tahlil qilish jarayonida ulardagi nozik nafosatni ochib berishga harakat qiladi. Bu borada rassomlardan O'.Tansiqboev, N.Karaxan, A.Mo'minov, L.Salimjonova, I. Jabborov, Ch. Axmarovlarning yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o'lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o'rganadilar va ularni o'z ishlarida tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo'ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san'atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o'tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O'sha davrdagi binolar, o'simliklar, xayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ma'lumki, bolalar, tarixiy, batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, halqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko'pgina bilimlarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o'rgatishda tasavvur va xotirani, ijodkorlik va fantaziyani rivojlantirishda maktabda tasviriy san'atni oldiga tushadigan bironta ham o'quv predmeti yo'q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodiy fikrlashga o'rgatishda katta o'rinni egallaydigan fanlardan matematika ham bunday imkoniyatga ega emas. Xususan, matematika darslarida o'nta masalani bir yo'l yoki bir formula asosida echilsa, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar bir masala (topshiriq) ni bir necha yo'l bilan echadilar, u so'zsiz bolalarni fikrlashga, ijodiy o'ylashga yo'naltiradi. Aytaylik, o'quvchi u yoki bu hayotiy yoki afsonaviy mavzularda kompozitsiya ishlash jarayonida, mavzu bilan bog'liq bo'lgan voqeani eslashga harakat qiladi. Bunda voqea qaysi davrda, qaerda yoki boshqa sayyoralardami, suv ostidami, tabiat qo'ynidami yoki uy ichidami,

rasmda odamlar tasvirlanadimi yoki hayvonlarmi, tasvirlanadigan mavjudodlarning tuzilishi, shakli, ranglari, o'lchovlari qanaqa bo'lishligi haqida o'ylaydilar.

Eng muhimi, qog'oz yuzasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidadir. Shuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobillik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san'atning nazariy asoslari-yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini tasavvur qiladilar va qo'llaydilar. Ular o'z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo'lishligiga harakat qiladilar.

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida qo'yiladigan topshiriqlar esa o'quvchilarni birdan bir va betakror o'z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo'llaydi. Bolalar o'quv topshiriqlarini echishda o'zlarini ijodkor bo'lishga undaydilar. Ular

ijodkor uchun avvaldan ma'lum bolgan yoldan muammoni tez va oson hal qilib qo'yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas echimlar orqali o'zlarining ijodkorlik va hayolotlarini, me'yor va uyg'unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada ma'lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko'p jihatdan ana shunday kishilarga bogliq. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko'zda tutilmagan har qanday vaziyatlarda muammoni tez va oson echimini topa oladigan kishilar halqimizni taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ro'yobga chiqishga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchungina emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injenermi, vrachmi, dexqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Shuning uchun ham ta'lim tizimida tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri deb qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodiy tafakkurni o'stirishda tasviriy san'at darslari boshqa fanlar orasida eng katta o'rinni egallaydi.

O'quvchilarning ijodkorligi esa ko'proq bolalarda diqqat va tasavvurni o'stirishi bilan boglanadi. O'quvchi ayniqsa, boshqa sayyoralar, suv osti dunyosi, afsonaviy hayvonlar (dev, kentavr, suv parisi, dengiz shoxlari v.b.) bilan bogliq rasmlar ishlaganda tasavvurni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. Qolaversa har bir ijodiy ishni tasavvursiz va diqqatsiz echib bolmaydi. Shuningdek bu masala bolalarda his-hayajonni rivojlantirish bilan bogliq. Ma'lumki, bolalar nihoyatda hayajonga boy boladilar. Bolalarni narsalar tasviridagi turfa rang va shakllar, real va afsonaviy obraz va ko'rinishlar, voqea va hodisalar larzaga soladi, ularni tolqinlantiradi.

Tasviriy san'at o'quv predmetining muhim vazifalaridan biri, u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini quloq, burun, og'iz v.b. a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek,

naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, olchovlari, fazoviy joylashuvi, harakat go'zalligini kuzatadilar hamda ularni o'z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar. Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari,

o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarining joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xotirani, ayniqsa ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o'qigandek o'qib bolmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan, rassomlar chiziqlar, ranglar, o'lchovlar, kompozitsiya, proportsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar. Bu borada shuni alohida qayd qilish lozimki, san'at asarlari, ayniqsa, tarixiy, turmush janridagi asarlar, ayrim halq va mamlakatlar haqida to'la-to'kis va keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bularni o'qiy olgan shaxslargina asarlarda ilgari surilgan g'oyalarni, tasvirlangan mazmunni chuqur idrok eta oladilar. Shuningdek, ular asarning badiiy qiymatini aniqlay oladilar va unga tegishli bahoni ham bera oladilar. Shu bilan bir qatorda asarlardagi go'zallik, ko'tarinkilik, qaxramonlik kabi sifatlardan mamnunlik va zavqlanish hosil qiladilar. Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy g'urur va milliy istiqlof mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solarsan ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, halqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligini shoxidi bo'lamiz. Masalan, ona-tuproq uchun kurash olib borgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rangorang go'zal manzaralarini, o'zbek halqining

Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini ifodalovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atning qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar, O'zbekistonning shirin-shakar va rangorang mevalari, gullaridan tuzilgan natyurmortlar rasmini ishlaydilar, natijada ularda Vatanga va o'z halqiga nisbatan mehr-muhabbat, milliy g'urur kabi sifatlar shakllantiriladi.

“Daladagi ishlar”, “Ko'chat o'tkazish”, “Hosilni yig'ib terib olish”, “Fermada”, “Bizning qurilishlarimiz ” kabi mavzularda rasm ishlash, halqimizning turli sohadagi (mediklar, kosmonavtlar, o'qituvchilar, olimlar, madaniyat va san'at arboblari, qishloq xo'jaligi xodimlari v.b.) shijoatli mehnatini, mehnat qahramonlarining obrazlarini ifodalovchi tasviriy san'at asarlarini namoyish etish orqali bolalarda mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.

Hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablarining vazifalaridan biri bolalarni turli kasb va hunarlarga yo'llash hisoblanadi. Ma'lumki, har bir bolada u yoki bu hunarga, ilmga havasi bo'ladi. Bu havas har doim har bir bolada ochiq namoyon bo'lmaydi, ayrimlarida ochiq, ayrimlarida yashiringan bo'ladi. Maktab jamoasining, har bir o'qituvchisi va tarbiyachisining vazifasi har bir boladagi mavjud havasni rivojlantirish, yashirincha havasini ro'yobga chiqarib, ularni san'atni tushunish va hurmat qilishga o'rgatishdan iborat. Maktabdagi boshqa fanlar qatori tasviriy san'at darslarida ham bolalarni ko'pdan-ko'p hunar va kasblarga yo'naltirish, ularni tarbiyalash imkoniyatlari bor. Xususan, rassomlar tomonidan ishlangan san'at asarlarida mashhur turli kasb egalari, bunday kishilarning ish jarayonlari (mehnat qahramonlari, xizmat ko'rsatgan kishilar, militsiya xodimlari, olimlar, o'qituvchilar, injenerlar, dehqonlar v.b.) aks etadi. Shuningdek, tasviriy san'at haqida olib boriladigan suhbatlarda mashhur halq amaliy san'ati ustalari, rassomlar, haykaltaroshlarning hayoti va ijodi haqida fikr yuritiladi.

Tasviriy san'at darslarida bolalar turli kasblar haqida rasm ishlaydilar (Masalan, “Novvoy”, “Fermada”, “Qurilishlar”, “Olimlar munozarasi”,

“TSirkda”, “Otchoparda”, “Fazoga parvoz”, “Sport o’yinlari”, “Chavandoz”, “Kurash”, “Sahnadagi o’yin”, “Hayvon o’rgatuvchi”, “Hosilni yig’ib terib olish”, “Dorbozlar”, “Avtopoyga”, “Sehrgar”, v.b.). Bunday mashg’ulotlarda o’qituvchi so’zsiz suvratda aks etgan kasblarning mazmuniga to’xtaladi hamda bu kasblarga bolalarni qiziqtiradi.

Hozirgi kunda biz bolalar orasida maktabdan bezish hollarining ko’payishi kuzatilmoqda hamda jinoyatchilik va qonunbuzarlik oshib bormoqda. Bolalarda madaniyatning talablar darajasida emasligi, ularning bo’sh vaqtlarini san’at, sport bilan band qilib qo’yilmaganligi, o’qish jarayonida bolalarning qiziqishlarini hisobga olinmaganligi, bolalarga maktabda inson emas mehnat resurslari sifatida qarab kelinayotganligi oqibati deb bilamiz. Shuni yaxshi bilish lozimki, badiiy madaniyat asoslaridan hisoblangan tasviriy san’at, bu bolalarning ko’ngil ochuvchi o’quv predmeti emas, balki bolalarga ijodkorlikni, tafakkurni badiiy-estetik didni, fahm-farosatni o’stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga, uni o’zgartirishga, ezgulikni yovuzlikdan farqlashga o’rgatuvchi o’quv predmeti deb qaramoq lozim. Tasviriy san’at ijodiy ishlar jarayonida o’z vazifalarini bajara borib bolalarga quvonch va qalb ko’tarinkiligini olib keladi, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

2.2. Umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilariga sinfdan tashqari mashg’ulotlarini tashkil etishda rangtasvirdan suhbat o’tkazish metodikasi

Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o’rganish, tasviriy san’at ta’limini muvaffaqiyatli o’zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan o’quvchigina amaliy ijodda samarali shug’ullanishi mumkin. «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to’la ishonch hosil qila olmaydi deya ta’kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog’liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo’lmaydi».

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq: «Biz hamma bilimlarimizni aqliy fikrlar bilan mustaxkamlab bormog’imiz lozimki, shunda

ikkilanishga ham, esdan chiqishga ham imkon qolmaydi»

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovskiy aytib o'tganidek: «San'atni o'rganayotganlar tasvirlashni yo'llari va usullari, ya'ni narsalarni shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburlanish».

Tasviriy san'atning tarixi, rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Evropa singari Rus badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga etarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda kasb mahorati, yorug'-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekamu ko'st yoritib bera oladi deb bo'lmaydi. Gap shundaki, o'quvchi buyum va narsalarni o'ziga xos ranglarini va ularni yorug'lik ta'sirida o'zgarishlarini ko'rib tushunsa ham rangtasvirchi rassom bo'la olmaydi, chunki rangtasvirni umumiy qonuniyatlari (ranglar nisbati, issiq va sovuq ranglar, kolorit ranglar uyg'unligi) mavjud. Bir qancha rassomlarni tarbiyalagan, ajoyib pedagog-rassom D.N.Kardovskiy aytganidek: Naturada ham, ishni boshqarishda ham asosiy e'tibor shunga qaratilishi kerakki, butun darsni o'tish jarayonida ranglar nisbatini hisobga olish zarur... Doimo rang munosabatlari bilan ishlash va flkrlashga o'rganish kerak.

Ta'lim olish jarayonida o'quvchilar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari- rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim, ular rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o'rni, havo

perspektivasi, qog'oz yuzasida xajmli buyumlarni fazoviy joylashuvi, tasvirlash qoidalari, soya-yorug'lik qonuni, qo'yilmani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir. Rangtasvir nazariyasidagi ushbu asosiy savollarni bayon qilishga o'tamiz.

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har-xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uygotadigan asarlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zargaldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatli: ilyq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq, zargaldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi.

Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir, qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi ya'ni - qizil, sariq, ko'k, yashil,

jigarrang va hokazo, och-to'qligi ya'ni - och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullarini (texnikasini) bilishini taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yog'ida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqozo etadi.

Q'uvchilar rangshunoslik nazariyasini ayniqsa puxta bilishlari shart. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bolib asosiy ranglarni kashf etgan. Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rang ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr

ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati - rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda uning kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'lni eslatga, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tuldagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi, qo'shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil

bo'ladi, yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi /qo'shimcha/ hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zargaldoq, qizil, sariq, havo rang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Akvarel rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o'zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar» ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va biriktiruvchi modda sifatida olcha elimi, gletsirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o'rnini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Qog'oz oppoq, etarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budir bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar etarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayonida umumiydan xususiyga yoki aksincha xususiydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa natyurmortdagi narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Natyurmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda natyurmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini taxlil qilib, tushunib

olish muhimdir. Chunki xona ichiga qo'yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur -narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug' qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'rnida jo'yali qo'llash muhimdir.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holida bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorligini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchaning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bolishi mumkin. Ya'ni: limon rang kadmiy, sariq kadmiy, och oxra, tabiiy siena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kraplak, karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, xavo rang, zumrad yashil, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to'q jigar rang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo etuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir, havo rang, yashil, zangori tushlarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish kerak. Har xil bo'yoqlar

bilan (akvarel, guash moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Bunga sabab maktabda rasm ishlashni o'rganishda akvarelning etakchi rol o'ynashidir. Shuning uchun uni o'qitayotgan o'qituvchining o'zi ham shu sohani puxta egallagan bo'lishi zarur.

2.3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda natyurmort ishlashga o'rgatish metodikasi

Tasviriy san'at darslari badiiy tarbiyaning samarali vositasi bo'lishi bilan birga katta amaliy ahamiyatga ham ega, chunki u ranglarni ko'rish va his etishga, ulardagi nozik tovlanishlarning farqiga borishga o'rgatadi. Bu esa hap bir kishining kundalik hayotida zarur.

Buni amalga oshiradigan tasviriy san'at o'qituvchisi o'zi rangtasvir asarlarining tarixini va ularni yaratish usullarini yaxshi bilishi va o'quvchilarga bu bilimlarni yetkaza olishi kerak. SHuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturi o'quvchilardan rangshunoslik fanining ilmiy negizlarini puxta egallashni, rangtasvir materiallarining xususiyatlarini va ularni ishlatish yo'llarini bilishni talab etadi. SHuning uchun dastur amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, amaliy vazifalar ko'rigidan tashqari, og'zaki so'rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir san'ati nazariyasi va metodlarini o'rganishdan maqsad vazifalarni mukammal bajarib borishdir. O'quvchilar sinf darslaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim.

O'quvchilar mashg'ulot paytida tasvirlaganlariga o'xshash natyurmortlarni uyda mustaqil qo'yib, bo'yoqlar bilan ishlab o'rganishlari lozim. Buning uchun esa ular mustaqil ravishda natyurmort qo'yishni bilishlari kerak. Rangtasvir san'atini chuqur bilish va bu sohada amaliy malakaga ega bo'lish muallimga o'z

shogirdlariga tasviriy san'at asoslarini o'rgatish, mashhur rassomlarning asarlarini tahlil qilish va emotsional idrok etishga o'rgatish uchun imkoniyat yaratadi.

Tasviriy san'atga hos badiiy vositalarni o'rganish maqsadida mohir rassomlar ishlagan suratlarni atroflicha tahlil qilish, ularning uslubiga taqlid qilish mumkin. Lekin namuna sifatida, albatta, jahon san'atining durdonalari hisoblangan haqiqiy san'at asarlarini tanlash kerak.

Tajribali rassom ishlagan suratda uning o'y-hayollari, hayotiy tushunchalari o'z ifodasini topgan bo'ladi. SHuning uchun undan to'la nusxa ko'chirishga behuda urinmay, hap kim o'z imkoniyati va qobiliyatini hisobga olib, natyurmort qo'yib tasvirlagani ma'qul. Mohirona bajarilgan asarni kuzatish paytida esa, mo'yqalam sohibi bunday jozibaga, ifodalilikka qanday erisha olgan, narsalardan qanday yagona gurux tuza olgan, nima maqsadda buyumlarni aynan shu tarzda qo'ygan, yorug'likdan qanday foydalangan, tus va rang uyg'unligiga qaysi yo'l bilan erishgan, kishi diqqatini suratning kompozitsiya markaziga jalb etish uchun nima qilgan, ikkinchi darajali narsalarning asosiy narsalarga bo'ysinishiga qanday erishgan, suratda fazoviy holat, masshtablik ifodalanganmi, perspektiva qonunlari qo'llanilganmi, xullas, natyurmortning maftunkor chiqishiga tajribali rassom qanday vositalar tufayli erishgan?- degan, savollarga javob qidirish kerak.

Yuqorida biz bir qator natyurmortlarni qalam bilan ishlash usullari haqida fikr yuritgan edik. Natyurmortning qalamtasvirini bajarishga qo'yiladigan talablar, narsalarning hajmi shaklini makonda tasvirlashdan iborat edi. Bo'yoqlar bilan tasvirlashda esa, uning qanday materialdan ishlanganligi, hajmdorlik, yorug'-soya, tus va rang vositalari orqali ifodalanadi. Qalamtasvirda biz narsa va buyumlarni faqat och-to'qligini ko'rsata olar edik, rangtasvirda esa ranglar butun majmuasi va barcha sifatlari bilan namoyon bo'ladi. Ya'ni bo'yoqlar bilan tasvirlashda narsa va buyumlar o'zining aniq rangi bilan emas, balki atrofdagi boshqa turli ranglar bilan bog'lanishda ko'zga ko'ringan rangi ifodalanadi.

Haqiqiy rangtasvir asari o'zida narsalarning barcha xususiyatlari-shakli va rangini, vazminligini, qattiq yoki yumshoqligini, sirtining o'ziga xosligini (xira, yaltiroq, g'adir-budur va hokazo) to'la aks ettiradi. Ba'zida tasvir shunday jonli

bo'ladiki, hatto unga qarab turib kishi tasvirlangan mevalarini mazasini, gullarning esa hidini sezayotgandek bo'ladi. Bunday asarni yaratgan rassomning ranglarni his qilish qobiliyati juda o'tkir bo'ladi.

Rangtasvirning murakkabligi shundaki narsalarning rangini, xilma-xil tuslanishini atrof muhit ta'sirida aks ettiradi.

Ayniqsa tabiat qo'ynida muhit ta'siri ostida ranglarning o'zgarishi yaqqol seziladi. Ko'zlarimizdan uzoqlashgan sari narsalarning rangi (olisdagi o'rmon, tog'lar va hokazo) havo rang tusga kiradi, ular xiralashib, nursizlanib ko'rinadi.

Buyumlarning uzoqlashib borishiga qarab, rangdorlik va ko'rinish ravshanligidan o'zgarishlar havoii perpektivani ifodalaydi.

Xona ichida esa muhitning ta'siri o'ziga hos bo'ladi, ya'ni derazadan uzoqlashgan sari narsalarning rangi xiralashadi, ravshanligi birmuncha yo'qoladi.

Natyurmort ishlaganda yorug'likning yo'nalishini va uning kuchini hisobga olish kerak. Narsalarning hajmdorligi ularning sirtida yorug'-soya va ranglarning tarqalishi tufayli ko'zga ko'rinadi. Buyumlarning chiziqli rasmi chizilganda uning asli shakli emas, balki perpektivada o'zgarib ko'ringan shakli tasvirlangani kabi, uni bo'yoqda ishlaganda ham o'zining aniq rangi emas, balki atrofdagi boshqa ranglar bilan bog'lanishda ko'zga ko'ringan rangi ifodalanadi.

Demak, natyurmortning rangtasvirini ishlashda qo'yilgan narsalarning yopyg'-soya nisbatlarini ham, rang nisbatlarini ham ochib ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Rang nisbati deganda, rangtasvirda narsalarning och-to'qlik darajasi deb, ular rangining tusi va yorqinligini natura bilan mutanosiblikda tasvirlanishiga aytiladi. Har qanday tasviriy asardagi mujassam ranglar majmuasini kolorit deb ataladi.

Surat koloritli bo'lmasa, garchi u yaxshi o'ylangan, tuzilgan, bajarilgan bo'lsada, ta'siri oz bo'ladi.

Natyurmortnavis rassom hech qachon asarning koloritini o'zicha o'ylab topmaydi, u tabiatning o'ziga qiyos qilib, ranglar birikmasi va nisbatini xatosiz ifodalaydi.

Natyurmortdagi narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlashga undagi ton birligini tushunishga o'rganishda, natyurmortni bitta rangda bajarish foydali. Bir rangli bo'yoqda yozish usuli grizayl deb ataladi. Grizayl- frantsuzcha "grizayle" degan so'zdan olingan bo'lib, nafis san'atda bir rangning hap xil tuslaridan foydalanish demakdir. Grizayl faqat qalamdagina emas, balki akvarelda, moyli bo'yoq va hokazo materiallarda ifodalanishi mumkin. Bu ishlardan asosiy maqsad buyum hamda fonning o'zaro bog'liqligini topishdir.

Odatda grizayl uchun to'q bo'yoqlar, masalan, to'q zangori, qora, jigarrang kabilar tanlanadi.

Grizayl quyidagi tartibda ishlanadi:

1. Avval natura yoki buyumning chiziqli rasmi ishlanadi. Rasm ishlanib va tekshirilib bo'linganidan keyin undagi shu'laning o'rni hamda shaklining eng yorug' va to'q joylari aniqlanadi. Ba'zan buyumlarda shu'la bo'lmasligi ham mumkin.

2. SHu'la o'rniga qog'ozda joy qoldirilib, tasvirning boshqa qismlari bo'yoqning kuchsiz eritmasi bilan qoplab chiqiladi. Bunda eritma tusining ko'rinishi buyum yopyg' joylarining ko'rinishiga yaqin bo'lishi lozim.

3. Surilgan bo'yoq bir oz qurigunga qadar buyumning eng yorug' joylari, yarim soyalari hamda soya qismlari aniqlanadi. Keyin esa tasvirning qolgan qismi bo'yoqning yangi eritmasi bilan qoplanib, soya va yarim soyalar bo'lgan joylar yengilgina yuvib olinadi. Aks holda, ayrim joylarda keskin o'tishlar va chegaralar hosil bo'lib qolishi mumkin. Agar predmet fonda bajarilsa, bir vaqtning o'zida yorug' tomonlari va soya tomonlari uchun tuslar tanlanadi.

4. Soya va soyaroq joylar bo'yoq miqdorini ko'paytirish yoki mo'yqalamda yengil mazok qo'yish usuli bilan hosil qilinadi. Fonni buyum bilan birga ishlagan ma'qul. Bunda uning yorug'lik hamda soyalar o'rtasidagi chegarasini aniqlab olish, shuningdek och soya joylari bilan solishtirishning ahamiyati juda kattadir.

Oxirgi bosqichda ingichka mo'yqalam bilan shakllarni maydalab ishlab chiqish, narsalarning asoslari yonida soyalarni bir oz to'qlashtirib, natyurmortning yaxlit va hamohang ko'rinishiga erishish kerak. Avval aytilgandek, hap bir

narsaning o'z tonini topishga urinmang, ular o'rtasidagi nisbatlarni to'g'ri ifodalang. Tasvirni naturaga yaqinroq joyga qo'yib, yana bir marta butunligicha natura bilan solishtirib, tahlil qilib chiqish zarur.

Grizaylʼ uslubda rasm solish ko'p rangli ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarelʼ bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat katta.

Grizaylʼ uslubi bilan bir nechta natyurmort tasvirlab o'rgangandan so'ng, butun ranglar majmuasi bilan natyurmortning rangtasvirini ishlashga o'tish mumkin bo'ladi.

Natyurmortning ko'p rangli tasvirini yaratish ancha murakkab ish bo'lib, rangshunoslik nazariyasini batafsil o'rganishni, akvarelʼ, guashʼ, moybo'yoqlarning xususiyatlarini yaxshi bilish va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashni talab etadi.

Olamda ranglar inson aqlini hayratlantiradigan darajada ko'p va xilma-xildir. Diqqat va sinchkovlik bilan kuzatgan kishi ayni bir rangning hap xil tuslanishi va tovlanishini payqaydi.

Tabiatdagi turli-tuman ranglarning nozik tovlanishlarini ko'rish va sezish, ularni tasvirlay olish uchun rangshunoslik fani bilan yaqindan tanishish lozim. Fiziklarning aniqlashicha, quyosh nuri bir dasta rangli nurlardan tashkil topgan bo'lib, uch qirrali tiniq prizmadan o'tkazilganda u bir necha ranglarga ajralib ko'rinadi. Bular - qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havo rang, zangori va binafsha ranglardir. Diqqat bilan qaralsa, bir rangdan ikkinchisiga asta-sekin o'tib borishdagi oraliq masofada shu ikkala rangga yaqin bo'lgan bir qancha ranglarni ko'rish mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan yettita rang spektr ranglar deb ataladi. Tabiatda bu ranglarni yomg'ir yog'gandan so'ng kamalakda, shudring tomchilarida kuzatish mumkin.

Tabiatdagi ranglar xarakteriga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) ranglarga bo'linadi. Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil etadi. Bu ranglar o'zaro aralashtirilganda yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi.

Biror xromatik rangga ochroq kul rang qo'shsak, uning jozibaligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda uning kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sarg'ish ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, sapsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar

qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sarg'ish, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.

Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektr rang: qizil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq rang hosil bo'ladi. Biroq sariq va havo rang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Axromatik ranglar bir-biridan yorug'likning kuchi jihatidan farq qiladi. Xromatik ranglar esa faqatgina yorug'lik kuchlari bilan emas, balki nomlari va tushlari jihatidan ham keskin ajralib turadi. Masalan, qizil rang bilan sariq rang o'rtasidagi farq (ravshanligida) ham (och- to'qligida) ham yaqqol ko'rinib turadi.

Xromatik ranglarning yana bir xususiyati shundaki, ular bir-biriga monand bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Masalan, 2 xil rang yonma-yon qo'yilganda biri ikkinchisiga monand bo'lsa, ya'ni uyg'unlashib ko'rinsa, ular

to'ldiruvchi rang hisoblanadi. Uyg'un rang birikmalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Bir xil ranglilar - zangori, och zangori, to'q zangori yoki qizil, och qizil, to'q qizil.
2. Ikki xil ranglilar - qizil-yashil, zarg'aldoq-ko'kish yashil, sariq-binafsha va hokazo.

To'ldiruvchi ranglar yonma-yon qo'yilganda moslashuv qonuniga binoan bir-birini ochadi, natijada hap ikkalasi ham ravshanroq ko'rinadi. Masalan, qizil rangni yashil rang yoniga qo'yilganda u yanada ochiqroq, nafisroq bo'lib ko'rinadi. Biroq, ikkita to'ldiruvchi rang bir xil miqdorda aralashtirilsa, kul rang hosil bo'lib qolishi mumkin. Bunday paytlarda birorta rangning yoruqlik kuchini kamaytirish uchun ustidan to'ldiruvchi rangning suyuq eritmasi bilan qoplanadi yoki atrofdagi ranglar xalqasi o'zgartiriladi. Masalan, qizil rangni ozroq kuchsizlantirish uchun uni yashil rangning suyuq eritmasi bilan qoplash mumkin.

SHunday qilib, xromatik ranglar bir-biridan uch asosiy hossasi bilan, ya'ni yorug'lik kuchi (darajasi), rangining tusi va ravshanligi bilan farq qiladilar.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularning birini qizil, ikkinchisini ko'k, uchinchisini binafsha deb atalishiga asos bo'lgan belgisi rang toni deyiladi.

Rassomchilikda uchta rang asosiy hisoblanadi. Bular qizil, sariq, zangori bo'lib, ularni bir-biri bilan aralashtirish orqali boshqa ranglarni hosil qilish mumkin. Buning uchun mavjud bo'yoqlarni palitrada qorishtirib ko'rish darkor.

Masalan:

zangori + sariq = yashil;

qizil + sariq = zarg'aldoq;

sariq + qizil = och zarg'aldoq;

qizil + zangori = binafsha;

qizil + sariq = sarg'ish qizil;

sariq + zangori = och yashil.

Yuqorida aytganimizdek, ranglar o'zlarining mahsus nomlariga egalar: qizil, sariq,

ko'k, yashil va hokazo. Lekin tabiatda qizil yoki boshqa rangning birqancha xillarini uchratish mumkin. Masalan, qizillarning quyidagi turlari mavjud: qirmiz, alvon, arg'uvon, shol, aqiq, gulobi, bika, to'q qizil, nim qizil, pushti, och qizil, zarg'aldoq, malla, qovoq rang, za'faron, jigar rang, qizg'ish jigar rang, kesak rang. Bu ranglar qizil bilan sariq ranglar o'rtasida hosil bo'ladi. Sariq va zangori ranglar o'rtasida esa - capg'ish, yashil, zumrad, firuza, zaynobi och yashil, pistoqi, ko'kish yashil, to'q yashil, mosh ranglar hosil bo'ladi. Zangori bilan qizil o'rtasidagi ranglar binafsha, sapsar, siyoh rang, qizg'ish binafsha, ko'kish binafsha, to'q zangori, ko'kish yashil, lajuvard kabi nomlar bilan ataladi.

Tabiatda mavjud bo'lgan narsalarning aniq rangini ochib ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Lekin tajribali rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rish idroki xususiyatlarini hisobga olib, har qanday narsani ham tasvirlay oladi. Masalan, yaltirab turgan narsani tasvirlash uchun tayyor bo'yoqlar topishning iloji yo'q, lekin rassomlar yaltiroq narsani muvaffaqiyatli tasvirlaydilar. Bunga tilla, kumush, billur idishlar kiritilgan natyurmortlar misol bo'la oladi. Tasvirda shunday jozibaga va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli hil tovlanishini hisobga olib ishlata olish yordam bergan. Masalan, olov rang (gulnor) qizilni kuchliroq, yal-yal yonadigan qilib tasvirlash uchun, shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir havo rang, yashiltob havo rang tushlarda beriladi. Tasvir bilan natura o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun, ularning rang nisbatlari o'rtasida o'xshashlik bo'lishi shart.

Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonida bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel', guash', moybo'yoq) natyurmortlar tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'at fani dasturida akvarel' bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rin egallaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at dasturida vazifalarning ko'pchilik qismini akvarel' texnikasida bajarilishini nazarda tutadi.

Ayniqsa maktablarda ko'pgina topshiriqlar, shu jumladan, natyurmortlar, akvarelъ bo'yoqlar bilan bajarishga mo'ljallangan. Akvarelъ lotincha so'z bo'lib, suvga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, "akvarelda ishlangan rasm" degan ma'noni bildiradi. Akvarelъ bo'yoqlarda ishlangan surat nihoyatda tiniqligi, nozikligi, nafisligi bilan kishini maftun etadi. Akvarelъ bo'yoqlar bilan ishlash usullari o'z taraqqiyotida bir necha marta o'zgardi. Akvarelъ bilan ishlash usuli juda qadim zamonlardan beri mavjuddir. Qadimgi Misrliklar papirusda akvarelъ bilan ishlash usullaridan xabardor bo'lganlar. O'rta asrlarga kelib, qo'l yozma sahifalari va kitob miniyuralari akvarelъ bo'yoqlarda bezatilar edi. Keyinchalik akvarelъ guashъ bilan aralashtirilib qo'llaniladigan bo'ldi. Uyg'onish davrida bir necha rassomlar bu bo'yoklar bilan ishlar edilar. Usha davrda ijod qilgan mashhur rassom Alъbrext Dyurer o'z ishlarida akvarelъni ko'p qo'llar edi.

Rossiyada akvarelъ texnikasining rivojlantirishdagi muhim ahamiyati faqat XVIII asrda tan olindi. Ungacha akvarelъ kitoblarni bezashda, turli xil ornamentlarni ishlashda va boshqa amaliy bezatuvchilik ishlarida qo'llanilar edi. Rus san'atida akvarelъ rassomchiligi ustalaridan A.N.Voronixin, J. Kvarengi, F.Ya. Alekseevlarni tilga olish mumkin. Jakopo Kvarengi qora akvarelda mo'yqalam va pero bilan ishlashni kashf etgan. Bu davrda akvarelъ bo'yoqlarda portret ishlash keng suratda rivojlanadi.

Rus rassomlari P.P.Sokolov, K. P. Bryullov, A.A. Ivanov, F.A.Vasilъev, I.E. Repin, V.I. Surikov, I.A.Vrubelъ, V.D. Polenov, V.A.Serovlar akvarelъ texnikasini yanada mukammallashtirdilar. Bundan tashqari akvarelъ bilan ishlashda D.N.Kardovskiy, Ye.E.Lansere, A.P.Ostraumova, Lebedova, S.V.Gerasimov, D.A. SHmarinov, Kukriniksi kabi ko'pgina rassomlar katta natijalarga erishdilar.

Bu bo'yoqlarning yorqinligi, tiniqligi o'zbek rassomlaridan B.Hamdamiy, O'.Tansiqboev, M. Nabiev, G'. Abdurahmonov, A. Ikromjonov, N. Oripovalarni ham qiziqtirgan va ular bu texnikada qator betakror asarlar yaratganlar.

Akvarelъ bo'yoqlarda ishlash usullarining takomillashuvi uning turlarining ko'payishiga olib keldi.

Akvarelъ bo'yoqlar mo'yqalamda oson olinadigan, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi

kerak. Eng sifatli akvarelъ bo'yoqlari "Sankt -Peterburg" fabrikasida ishlab chiqarilgan. Suv bilan suyultirilgan bu bo'yoqlar uzoq vaqtgacha eritma shaklida saqlanadi, qog'ozga yupqa qatlam tarzida mayin va tekis surkaladi. Akvarelъ bo'yoqning bog'lovchisi o'simlikdan olinadigan rangsiz yelim-gummaarak va dekstrindir, bular suvda oson eriydi. Akvarelъ bo'yoqqa yana glitserin, asal va qand ham qo'shiladi, bo'yoq mayin va yumshoq bo'ladi. Glitserin bo'yoqning tez qurib qolishiga yo'l qo'ymaydi, nam saqlab turadi. Akvarelъ bilan ishlaganda oq bo'yoq ishlatilmaydi, uning o'rnini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Blik va yorug' yerlarni tasvirlash uchun o'sha joylar suyuq eritma bilan qoplanadi yoki oppoqligicha qoldiriladi.

Qog'oz akvarelъ bilan bajariladigan ishlarning yaxshi chizilishida muhim rolъ o'ynaydigan materiallardan biridir. Bundan tashqari qog'ozdan fon sifatida hamda oq bo'yoq o'rnida ham foydalaniladi. Qog'oz, albatta oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budur bo'lishi kerak. Juda silliq qog'ozga bo'yoq tekis surtilmaydi. Qog'ozning yuzi silliq bo'lmay, g'adir-budur bo'lsa, bo'yoq zarrachalari uning g'ovaklariga singib, quriganda yelimi qotishi natijasida mustahkamlanadi. Albatta, juda yupqa va bo'sh qog'oz ham akvarelъ rangtasviri uchun to'g'ri kelmaydi, chunki u suvni tez shimib olib, ivib ketadi, natijada bo'yoq yoyilib ketib, tasvirning aniqligiga putur yetadi. Qog'ozning chekkalari buklanib ketmasligi uchun maxsus taxta (planshet)ga mahkamlab tortib qo'yish kerak.

Planshet tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishda uning to'rttala tomoni 1,5-2 sm buklanadi. Qog'ozning teskari tomoniga jiqqa ho'l latta suvni o'ziga shimib olguncha surtiladi. CHeti qayrilgan burchaklari esa quruqligicha qoldiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirilib qo'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkizmasdan ho'llanadi. Undan keyin burchagidan oldin bir tomoni, so'ngra qarama-qarshi turgan tomoni ham diagonal bo'yicha barmoq bilan bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni ham xuddi shunday diagonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qotiriladi. Qirralari esa barmoq yordamida tekis qilib yopishtirib chiqiladi. Yelimlangan tomonlarida hech qanday tirishgan va qabariq joylari bo'lmasligi lozim.

Ho'l planshet mo'tadil temperaturali joyga qo'yib quritiladi. SHundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

Qog'ozni planshetga yopishtirmasdan, stirator yordamida tarang qilib tortib qo'ysa ham bo'ladi. Stirator planshetdan sal kattaroq romcha bo'lib, ho'llangan qog'oz ularning orasiga qistirib qo'yiladi, qog'oz qurigach, u qattiq tortiladi.

Akvarelъ bilan ishlayotganda maxsus akvarelъ mo'yqalamidan foydalanish lozim. Mo'yqalamlar ikki hil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarelъ bo'yoqlarga mo'ljallangan. Ularning ko'rinishiga qarab quyidagicha farqlash mumkin: yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar) kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi. Akvarelъ uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib, uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Rasm ishlaganda qog'ozning yuzi buzilmasligi uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshoq yunglardan yasaladi. Akvarelъ mo'yqalamining kolonok, olmaxon, savsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvga tiqib olib, silkitish kerak. Agar shunda mo'yqalamning uchlari to'planib qolsa yaroqli, to'zib tursa yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamning bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi. SHuning uchun akvarelъ bilan ishlashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi.

Yuqorida nomeri ko'rsatilgan yo'g'on hajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin, uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umuman olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bajara olish imkoni tug'iladi. SHunda ko'z hamda qo'l harakati uyg'unlashadi.

Endi mo'yqalamlarni ishlatishning bir qator usullari haqida gapirib o'tamiz. To'g'rirog'i, bu usullar tavsiya etilayotgan yo'llanma bo'lib, ular umumiy qoida

tarzida qo'llanilmaydi. Chunki ba'zan mo'yqalamni boshqacharoq vaziyatda ishlatishga to'g'ri kelib qoladi. Bordi-yu, mo'yqalam bilan keng yuzalarni berkitishga to'g'ri kelsa, uni burchak ostida ushlash hamda ishni qog'ozning tepa qismidan uzib-uzib bo'yoq berishdan boshlash zarur. Bunda mo'yqalam qog'ozning chap tomonidan pastga va ayni vaqtda o'ng tomonga qaratib tez-tez harakatlantiriladi. Agar yupqa va tiniq bo'yash kerak bo'lsa, mo'yqalam tik ushlanadi hamda ohistagina qog'oz bo'ylab yurgiziladi.

Kuchli mazok hosil qilish (uzib-uzib bo'yoq berish) uchun mo'yqalam kerakli joyga qattiqroq bosiladi va darhol ko'tarib olinadi. Oqib ketayotgan bo'yoq esa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi.

Homaki rasm ishlashda kerakli bo'yoqni o'z kuchida birdaniga qo'yish alohida mahorat talab qiladi. Lekin mo'yqalam qog'ozga oxirigacha bosib yuborilsa, hamma bo'yoq birdaniga oqib tushib ketishi mumkin. Qo'yilgan mazoklarning xarakterli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at darslarida oddiy, oq rangdagi yassi laganchadan palitra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishlash paytida metallardan yasalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan palitalardan foydalangan ma'qul. Palitraning eng yaxshi tomoni shundaki, unga qo'yilgan bo'yoqlar aniq va ravshan, tiniq bo'lib ko'rinib turadi. Shuningdek uzoq vaqtgacha qurimasdan saqlanadi. Palitraning rangi oq bo'lganligi sababli bo'yoqlarning tushlari o'zgarmasdan ko'zga tashlanadi. Buyoqlar ko'zga qanchalik yaqin bo'lsa, ularni bir-birlaridan ajratish ham shunchalik oson va qulay bo'ladi.

Palitraga ranglarni joylashtirishda muayyan tartibga rioya qilish o'quvchilarning sifatli ishlashlariga, ko'zlari va qo'llarining avtomatik ravishda harakat qilishga, ishni tez bajarishlariga yordam beradi va ularni ortiqcha qiynab qo'ymaydi.

Palitraga oldin iliq ranglardan sariq bo'yoqlar, keyin zarg'aldoq qizil, qovoqrang yoki jigar ranglar va nihoyat zangori, binafsha ranglar (bular sovuq ranglar jumlasidandir) qo'yiladi.

Palitraga qo'yilgan bo'yoqlarni bir-biri bilan aralashtirishda iflos

mo'yqalamlardan foydalanish qat'iyan man qilinadi. SHu tariqa palitradagi bo'yoqlar toza saqlanadi.

Ish tamom bo'lgandan so'ng palitra yaxshilab tozalab qo'yiladi, ayniqsa palitraning suv tekkan joylari yaxshilab artiladi.

Akvarelъ bo'yoqlar bilan ishlanadigan qog'ozni avaylash, yuzasi ifloslanib va titilib ketishidan ehtiyot qilish kerak. Bo'yoqni palitrada aralashtirish va palitra yonida, albatta rasm ishlanayotgan qog'ozga o'xshash sinov qog'ozi bo'lishi kerak.

Akvarelъ bo'yog'ida natyurmort ishlaganda avvalo qog'oz va qalamlar to'g'ri tanlanishi katta ahamiyatga ega.

Avval shuni eslatib o'tish joizki, o'quvchilar o'quv vazifalarini sinfda va mustaqil uyda bajarganlarida quyidagilarga amal qilishlari kerak.

Mavzuning mazmuni va xususiyati hisobga olgan holda, natyurmort qo'yilmasidagi buyumlarning bir-biri bilan bog'liqligi, shakli, rangi har tomonlama hisobga olinishi shart. Natyurmortni ishlashdan oldin uni necha bor sinchiklab kuzatish, shundan so'ng kichik o'lchamdagi qog'ozlarga yumshoq qalam bilan homaki rasmlar ishlash kerak. Bundan maqsad, qo'yilmani yanada puxtaroq o'rganish va asosiy qog'ozda ish bajarilganda ayrim xatoliklarga yo'l qo'ymaslikdir. So'ngra asosiy o'lchamdagi qog'ozda tasvirlashning barcha qoidalariga amal qilgan holda yumshoq qalam bilan boshlash mumkin. Tasvirlash jarayonida perspektiva qoidalariga qat'iy amal qilinadi.

Qalamda narsa va buyumlarni aniq tasvirlab bo'lgach, qog'oz mo'yqalam yordamida toza suv bilan namlanadi. SHunday qilinganda ranglar qog'oz yuzasida tekis yotadi, surtilishi oson bo'ladi. Endi akvarelъ bo'yog'ida amaliy ish bajarishda natyurmortni aniq, har tomonlama nafis bo'lishi uchun ranglardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, mo'yqalamni o'z vaqtida toza suv bilan yuvib turish ham alohida ahamiyatga ega.

Akvarelni ishlatish usullari bir necha xil bo'lib natyurmort rangtasvirini bajarishda ularni almashlab qo'llash tavsiya etiladi. Juda keng tarqalgan ish uslublaridan biri lessirovka, ya'ni bo'yoq qatlamlarini ustma-ust qo'yishdir. Bo'yoqning suyuq eritmasini tayyorlab olib, qog'ozga yengil qilib qo'yilganda,

ranglar orasida qog'oz tovlanib turadi. Bir sidra qo'yilgan bo'yoq qurigach, ustidan boshqa bo'yoq surtilsa: ostki qatlamining ko'rinib turishi tufayli yangi rang tusi hosil bo'ladi. Qatlamlar soni ko'paygan sari rang kuchayib boradi.

Akvarelning yana bir xususiyati ko'p vaqt namlikni saqlashidir. Bundan unumli foydalanib, bir xil rang qo'yilgandan keyin, u hali qurimasdan yoniga ikkinchisi qo'yilsa, ular asta sekin bir-biriga qo'shilib ketishi natijasida mayin bog'lanishga erishish mumkin. Lekin bir rangning ikkinchisidan farqini aniq ko'rsatish, kerak bo'lganda qo'yilgan, bo'yoq qatlamining obdon qurishiga ahamiyat berish muhimdir.

Akvarel bo'yog'ida tasvirlanayotgan buyum va narsalar dastlabki bosqichda och, suyuqroq, ranglar bilan yoziladi. Keyin esa, metodik ketma-ketlikda asta sekin to'qdan ochga, rangning soya, yorug', yarim soya va xokazolarni hisobga olib tasvirlashda davom etamiz.

Ishningoxirgi bosqichlarida tasvirlanayotgan buyum va narsalarning xususiyatlari, ularning o'zaro bog'liqligi, ranglarni topib o'z o'rniga qo'yilishi, natyurmortni mazmunli chiqishiga olib keladi.

Akvarel bo'yog'i pastel, guash, sangina, rangli qalamlar va flomasterlar bilan ham qo'shilgan xoldagi texnikada bajarilishi mumkin.

Tasviriy san'at sirlarini mukammal o'zlashtirish uchun ko'p mashq qilish, mashq qilganda ham e'tiqod bilan uning qonun qoidalariga to'liq amal qilinsagina ko'zlangan barcha maqsadlarga erishiladi.

III-Bob. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalar tahlili

3.1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi

Umumiy o'pta ta'lim maktablarida o'tkazilgan pedagogik amaliyot jarayonida mazkur maktabning sinfdan tashqari o'tkazilayotgan tasviriy san'at mashg'ulotlarini bevosita kuzatdim. Gurux rahbari natyurmort qo'yilmasini tasdiqlangan dastur asosida qo'ydi. O'qituvchi dastlab natyurmort qo'yilmasini o'quvchilarga og'zaki nazariy asoslab tushuntirib berdi. O'quvchilarning bergan ba'zi bir savollariga aniq javob qaytardi. SHundan so'ng o'quvchilar sinfda

qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini amaliy bajarishga o'tdilar.

Natyurmort qo'yilmasini qog'oz sathiga to'g'ri joylashtirish asosiy vazifalardan biridir. SHundan so'ng qo'yilmadagi katta va kichik narsa va buyumlarni fazoviy joylashuviga alohida e'tibor beriladi. Qo'yilmadagi buyumning xarakterli tomonlari aniq ko'rsatilishiga e'tibor beriladi. So'ngra o'quvchi rangli bo'yoqlar vositasida ishni davom ettiradi. Dastlab har bir buyum va narsaga suyuq, och tusda rang beriladi. Har bir buyum va narsani o'zining haqiqiy rangi emas, balki natyurmort qo'yilmasidagi, yorug'lik ta'sirida rang-barang matolarning rangi tushayotgan aksi holatida ularning rangi o'zgacha ko'rinadi. SHu narsaga amin bo'ldimki, metodik ketma - ketlikda ishlash ishni sifatli chiqishiga olib keldi. Ishning so'ngi bosqichida natyurmort qo'yilmasining rang va tus jixatidan yaxlit bir butun bo'lishiga erishish asosiy vazifa ekanligini angladim. Sinfda o'quvchilarning amaliy bajargan natyurmort qo'yilmasini birma-bir ko'zdan kechirdim. Sinfdagi faol o'quvchilar ishni har tomonlama mukammal bajargan. Ba'zilar esa ayrim kichik kamchiliklarga yo'l qo'yganlar. Biroq o'quvchilar o'z oldilariga qo'ygan vazifani uddalay oldilar. Bu albatta o'qituvchining yutug'idir.

3.2. Olingan natijalar tahlili.

Men umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining sinfdan tashqari tasviriy san'atdan o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonlarini kuzatdim va tahlil etdim. Quyidagi dalillarga e'tiborni jalb etmoqchiman.

O'quvchilarning sinfdan tashqari tasviriy san'atdan o'tkazilgan mashg'ulotlarda bajargan natyurmort qo'yilmalarini foizlarda quyidagicha tahlil etdik:

№	Vazifalar	Javoblar salmog'i (foiz hisobida)	
		Dastlabki bosqich	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	I –vazifa. Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi	58,2 %	65,3%

	qo'yilmaning fazoviy joylashuvi	55,3 %	60,3%
	ranglarda hal etilishi	64,2 %	70,9%
	tus jixatdan hal etilishi	65,0 %	70,8%
2.	II-vazifa. Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi	70,5 %	74,4%
	qo'yilmaning fazoviy joylashuvi	69,2 %	75,9 %
	ranglarda hal etilishi	60,6%	76,7%
	tus jixatdan hal etilishi	59,4%	66,9 %
3.	III-vazifa. Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi	68,4 %	73,7 %
	qo'yilmaning fazoviy joylashuvi	65,4 %	72,4 %
	ranglarda hal etilishi	59,3%	64,3 %
	tus jixatdan hal etilishi	54,4 %	60,7 %

O'quvchilarining to'rtinchi chorakda bajargan natyurmort qo'yilmalarini foizlarda quyidagicha tahlil etdik. Bu chorakda 2 ta natyurmort qo'yilmasini bajarish rejalashtirilgan.

№	Vazifalar	Javoblar salmog'i (foiz hisobida)	
		Dastlabki bosqich	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	I –vazifa. Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi	59,1%	67,3%
	qo'yilmaning fazoviy joylashuvi	62 %	70,1 %
	ranglarda hal etilishi	57,6%	66,9 %
	tus jixatdan hal etilishi	65,2%	72,9 %
2.	II-vazifa. Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi	59,4%	66,9 %
	qo'yilmaning fazoviy joylashuvi	62,2 %	68,5 %
	ranglarda hal etilishi	57,1%	65,1 %
	tus jixatdan hal etilishi	65,3%	72,6 %

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining sinfdan tashqari tasviriy san'at mashg'ulotlarida bajargan amaliy ishlarni kuzatib shunday xulosaga keldimki, guruh rahbarining bevosita o'quvchilar bilan ijodiy hamkorligi yaxshi natijalar berar ekan. Faqatgina mashg'ulot jarayonida emas, balki o'quvchi mustaqil ravishda o'z ustida tinmay ish olib borishi ham muhim ekan.

XULOSA

O'tkazilgan va tahlil etilgan tadqiqot ishlari quyidagi xulosalarni berdi:

Mustaqil O'zbekiston sharoitida shaxsning xar tomonlama barkamol rivojlanishi uchun mahalliy manbaalardan samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish orqali ularni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash va yuksak didli, ona Vatanga sadoqat, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan insonlar bo'lib yetishishlarini ta'minlashdir.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarni milliy san'atga va xalq ustalarini ijodini, an'analarini o'rganishga e'tiborlarini jalb etish muhimdir.

O'quvchilarga badiiy ta'lim tarbiya berish uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini har tomonlama rivojlangan, chuqur bilimli, keng fikr yurita oladigan o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishlariga erishmoq zarur.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarga milliy san'atimizni o'rgatish bilan bir qatorda, ularni jahon san'ati bilan ham xabardor qilib borish muhimdir.

Fikrimning so'ngida shuni aytish mumkinki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun, tinmay o'qishlari, o'rganishlari va izlanishlari zarur.

Bitiruv malakaviy ishdagi sohaga oid tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha lug'ati

1. Akvarel - water-color
2. Qizil - scarlet
3. Anatomiya - anatomy
4. Applikatsiya - applique
5. Arxitektor - architect
6. Atribut - attribute
7. Auditoriya – lecture room
8. Qog'oz - paper
9. Sinfdan tashqari – out of class
10. Maktabdan tashqari – out of school
11. Yorug'lik – patch of light
12. Tik – vertical line
13. Suv - water
14. Ko'rgazma - exhibition
15. Galereya - gallery
16. Ufq - horizon
17. Janr - genre
18. Rangtasvirchi - painter
19. Tasvir – representation, picture
20. Inter'yer - interior
21. Qalam - pencil
22. Asar - picture
23. Kollej - college
24. Tarx - contour
25. Metod - method
26. Metodika - methodic
27. Motiv – motive
28. Obraz – shape, form
29. Ob'ekt - object
30. Oxra - ochre
31. Portret - portrait
32. Praktika - practice
33. Realizm - realism
34. Qalamtasvir - drawing
35. Ritm - rhythm
36. Rozetka - rosette
37. Simmetriya - symmetry
38. Siluet - silhouette
39. Haykaltarosh - sculptor
40. Ijodiy – creative

- 41.Asar bo'lagi – fragment
- 42.Badiiy – artistic
- 43.Noyob asar – masterpiece
- 44.Ranglavxa - study
- 45.Akademik – academic
- 46.Estetik – aesthetic
- 47.Anatomiya - anatomy
- 48.Qadimgi - ancient
- 49.Istedod - genius
- 50.San'at - art
- 51.Miniatyura - miniature
- 52.Suratlar galereyasi – picture gallery
- 53.Plakat - poster
- 54.Bo'yalgan - coloured
- 55.Hamohanglik - harmony
- 56.Tasavvur qilmoq - imagine
- 57.Ko'rgazma – exhibition
- 58.Oliy ta'lim - education
- 59.Illustratsiya - illustration
- 60.Rassom - painter

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A.«O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari ».-T.: O'zbekiston, 1995, 9-b.
2. «Xalq ta'limi» jurnali, 1992-yil, 10-12 son, 1-bet.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
4. Abdullayev N. San'at tarixi. - Toshkent, 1987.
5. Abdullayev N. San'at tarixi. II – qism – Toshkent, 2001.
6. Azimova N. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1984.
7. Boymetov B, Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. – Toshkent: 1995.
8. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – Toshkent: HBM, 1992.
9. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1994.
- 10.Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. – Toshkent, 1993.
- 11.Maxmudov T. Abdulxaq Abdullaev (alʼbom). – Toshkent, 1987.
- 12.Nabiyev M. Rangshunoslik. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.

- 13.Oripov B. Tasviriy san'at iboralarining izohli lug'ati. N., 2003.
- 14.Oydinov N. Rassom – o'qituvchilar tayyorlash muammolari. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
- 15.Umarov A. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zTSMU, 1998.
- 16.Turdaliyev A. Kompozitsiyaga oid tayanch iboralar. N., 2004.
- 17.Abdurahmonov G'. Kompozitsiya. – Toshkent: 2010.
- 18.Yo'ldoshev J., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -Toshkent., O'qituvchi: 2004.
- 19.Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: TDPU, 2004.
20. Hasanov R. Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish.- Toshkent, 2000.
21. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. -Toshkent: Fan, 2004.
22. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2009.
23. Boymetov B. Qalamtasvir. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2006.
24. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –Toshkent:O'zbekiston nashriyoti, 2007.
25. Abdirasilov S.,Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. –Toshkent: Ilm Ziya 2010.